

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XAVFLI YUKLARNI AVTOMOBIL TRANSPORTIDA TASHISH QOIDALARINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA

“Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonunini** ijro etish yuzasidan hamda xavfli yuklarni avtomobil transportida tashishni tashkil etishga qo‘yiladigan talablarni belgilash, tashish jarayoni qatnashchilarining huquqlari, majburiyatlar va javobgarligini tartibga solish, harakat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasida xavfli yuklarni avtomobil transportida tashish **qoidalari** 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida tashishga ruxsat berilgan xavfli yuklar ro‘yxati 2-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin hamda ular 2011-yil 1-apreldan amalga kiritilsin.

* 2-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

2. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari O‘zbekiston Respublikasida xavfli yuklarni avtomobil transportida tashish qoidalari talablariga idoraviy qarashli tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rioya qilinishiga doir zarur chora-tadbirlar ko‘rsinlar.

Oldingi tahrirga qarang.

(3-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrdagi 370-soni qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — O‘R QHT, 2016-y., 3-son, 23-modda)

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari B.A. Xo‘jayev hamda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri B.A. Matlyubov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2011-yil 16-fevral,
35сон

Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 16-fevraldagli 35-son qaroriga
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasida xavfli yuklarni avtomobil transportida tashish QOIDALARI

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Qoidalar shaharlar va aholi punktlari ko‘chalari, umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llari, shuningdek umumiy foydalanish uchun yopiq bo‘lmagan xo‘jalik avtomobil yo‘llari bo‘ylab xavfli yuklar va xavfli yuklarni tashiydigan avtotransport vositalari kimga tegishliligidan qat‘i nazar, xavfli yuklarni avtomobil transportida tashish qoidalalarini belgilaydi va yukni jo‘natuvchilar (yukni oluvchilar)ga xizmat ko‘rsatuvchi barcha tashkilotlar uchun majburiydir hamda tashish jarayoni qatnashchilarining o‘zaro munosabatlarini, ularning huquqlari, majburiyatlar va javobgarligini tartibga soladi, shuningdek xavfli yuklarni tashishga qo‘yiladigan talablarni, harakat xavfsizligini, yuklarning saqlanishini ta‘minlash shartlarini va xavfli yuklarni sifatli tashishning boshqa meyorlarini belgilaydi.

Xavfli yuklarni avtomobil transportida tashish shartlari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Avtomobil transporti to‘g‘risida”, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, xalqaro shartnomalar va ushbu Qoidalar bilan belgilanadi.

2. Ushbu Qoidalarda “Avtomobil transporti to‘g‘risida”, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro

shartnomalarida belgilangan terminlar va tushunchalar, shuningdek quyidagi qo'shimcha terminlar va tushunchalar qo'llaniladi:

kuzov-sisternali avtotransport vositasi — suyuq va sochiluvchi yuklarning ayrim turlarini tashish uchun avtotransport vositasi;

konteyner-sisterna (tank-konteyner) — transportning har xil turlarida (dengiz (daryo), temir yo'l va avtomobil yo'li) suyuq kimyoviy va oziq-ovqat mahsulotlarini, neft va neft mahsulotlarini, shuningdek suyultirilgan gazlarni saqlash va tashish uchun mo'ljallangan hamda bir transport vositasidan boshqa transport vositasiga mexanizatsiyalashtirilgan qayta yuklash uchun moslashtirilgan standartlashtirilgan, ko'p aylanmali, multimodal transport birligi;

haydovchi — tashuvchining vakili hisoblangan va avtotransport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

yukni jo'natuvchi — yukning mulkdori nomidan ish ko'radigan yoki tashish shartnomasi bo'yicha mulkning mulkdori hisoblangan jismoniy yoki yuridik shaxs;

yukni oluvchi — yukni va yukka ilova hujjatlarida ko'rsatilganlarni olish vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

yuk — yukni oluvchiga berish uchun yukni jo'natuvchidan tashish uchun qabul qilib olingan moddiy boyliklar. Yuk tovar va idishdan iborat bo'ladi. Yukning sof og'irligi "netto", idishning og'irligi — "idish", idish bilan tovarning umumiy og'irligi esa "brutto" deb ataladi;

tovar tusidagi yuk — yuk, u bo'yicha yukni jo'natuvchilar (yukni oluvchilar) tomonidan tovar-moddiy boyliklarning omborxona hisobi yuritiladi;

tovar tusiga ega bo'lmagan yuk — ular bo'yicha omborxona hisobi yuritilmaydigan, biroq o'lhash, tortib ko'rish, geodezik o'lhash yo'li bilan tashish jarayonida hisobga olish tashkil etilgan idishsiz tashiladigan yuklarning turi (grunt, glina, shag'al, axlat);

yuk o'rni — avtotransport vositasiga ortishda yoki undan tushirishda yukni tashish yoki yukni oluvchiga topshirish uchun qabul qilish uchun yukning shartli birligi;

yuk olib boriladigan punkt — yuklar jamlanadigan joy;

buyurtmachi, mijoz — yukni jo'natuvchi, yukni oluvchi, ekspeditor;

Oldingi tahrirga qarang.

(2-bandning o'n uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagagi 503сонли qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.07.2018-., 09/18/503/1458-son)

ShChK (shoshilinch choralar kodi) — xavfli yuklarni tashishda avariylar yoki noxush hodisalar oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan ko'rildigan chora-tadbirlarning harfli-raqamli kodi;

xavfli yuklar — o'ziga xos xossalari va xususiyatlari tufayli muayyan omillar mavjud bo'lgani taqdirda tashish, yuk ortish-tushirish ishlari jarayonida tashilayotgan yuklar, texnika vositalari, qurilmalar, bino va inshootlar, boshqa obyektlarning portlashi, yonishi yoki shikastlanishiga, shuningdek odamlar hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zarar yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan moddalar, materiallar, buyumlar, chiqindilar;

alohipda xavfli yuklar — tashishda ehtiyyotkorlikning alohipda choralarini talab etadigan xavflilikning yuqori darajasidagi fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'lgan moddalar va materiallar (ushbu Qoidalarga 1-ilova*);

* 1-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

Oldingi tahrirga qarang.

radioaktiv chiqindilar — keyinchalik foydalanishga mo'ljallanmagan, tarkibida solishtirma aktivligi 74 kBk/kg dan ortiq darajali radionuklidlar mavjud bo'lgan va Xavfli yuklar tasnifi bo'yicha 7-darajaga tegishli bo'lgan har qanday agregat holatidagi modda;

past aktivlikdagi radioaktiv chiqindilar — solishtirma aktivligi 10^3 kBk/kg dan kam bo'lgan va gamma-nurlanish dozasi quvvati yuzada $0,1 \text{ m masofada}$ $0,001 \text{ m Gr/ch}$ dan $0,3 \text{ mGr/ch}$ gacha bo'lgan chiqindilar;

o'rtacha aktivlikdagi radioaktiv chiqindilar — solishtirma aktivligi 10^1 kBk/kg dan 10^7 kBk/kg gacha bo'lgan va gamma-nurlanish dozasi quvvati yuzada $0,1 \text{ m masofada}$ $0,3 \text{ mGr/ch}$ dan 10 mGr/ch gacha bo'lgan chiqindilar;

yuqori aktivlikdagi radioaktiv chiqindilar — solishtirma aktivligi 10^1 kBk/kg dan ortiq bo‘lgan va gamma — nurlanish dozasi quvvati yuzada 0,1 m masofada 10 mGr/ch dan ortiq bo‘lgan chiqindilar;

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 27-fevraldagi 56-sonli qaroriga asosan o‘n yetinchi — yigirmanchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2016-y., 9-son, 90-modda)

yo‘nalish — yuk punktlari o‘rtasidagi avtotransport vositasi harakatining oldindan ishlab chiqilgan, eng maqbul yo‘li;

tirkama — avtotransport vositasi tomonidan tortiladigan va o‘zining energiya manbaiga ega bo‘lmagan yuklarni tashish uchun xizmat qiladigan avtotransport vositasi;

yarim tirkama — tirkama turi, uning to‘liq massasining bir qismi tirkash yostiqchasi — tirkama qurilma orqali egar shatakchiga o‘tkaziladi;

tashuvchi — avtotransport vositasiga mulk huquqi yoki boshqa qonuniy asoslar bo‘yicha egalik qiladigan, tijorat asosida yuklarni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadigan va buning uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

yo‘l varaqasi — avtotransport vositasi ishini aniqlash va hisobga olish uchun belgilangan namunadagi yuridik hujjat;

xavf to‘g‘risidagi axborot tizimi (XTAT) — avtotransport vositasining xavfli yuklar bilan harakatlanishida xavfdan xabar beruvchi hamda yo‘l-transport hodisalari (YTH) va boshqa noxush hodisalar oqibatlarini bartaraf etish tadbirlarini belgilaydigan tizim;

paketlashtirish vositasi — yuklarni oqilona tashish hamda ortish-tushirish ishlarini yaxshilash va arzonlashtirish, shuningdek transportning barcha turlarida tashishda yuklarning yaxshi saqlanishi uchun moslama hisoblanadigan va idish hisoblanmaydigan vosita;

idish — tashish, saqlash va ortish-tushirish operatsiyalarida mahsulotlar va tovarlarni joylashtirishga va ularning saqlanishini ta‘minlashga mo‘ljallangan buyumdan iborat o‘rab-joylashtirishning asosiy elementi;

o‘rab-joylashtirish — ichiga joylashtirilgan mahsulotlar va tovarlardan ajratilmaydigan buyum, mahsulotlar va tovarlar buyumning zarur anjomni hisoblanadi hamda unda tovarlar va mahsulotlar saqlanishi va ularning sifatli va miqdoriy saqlanishini ta‘minlash uchun xizmat qiladi;

tovar-transport hujjatlari — hujjatlar komplekti, shu jumladan schyot-faktura, ular asosida yukni hisobga olish, qabul qilish, berish, tashish, topshirish hamda transport jarayonining qatnashchilari o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar amalga oshiriladi;

tovar-transport yuk xati — tovar-moddiy boyliklarni hisobdan chiqarishga, ularning yo‘ldagi joyi o‘zgarishini hisobga olish, kirim qilish, omborxona, tezkor va buxgalteriya hisobi uchun, shuningdek yukni tashish uchun hisob-kitob qilish va bajarilgan ishni hisobga olish uchun mo‘ljallangan transport jarayonining barcha qatnashchilari uchun yagona bo‘lgan hujjat;

BMT ro‘yxati bo‘yicha moddaning tartib raqami — Birlashgan Millatlar Tashkilotining xavfli yuklarni tashish bo‘yicha Ekspertlar qo‘mitasi tomonidan eng ko‘p tashiladigan xavfli moddalarga berilgan tartib raqami.

3. Xavfli yuklar xalqaro me’yorlar talablari bo‘yicha xavfli yuklar tasnifi bo‘yicha taqsimlanadi (ushbu Qoidalarga 2-ilova^{*}):

* 2-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

1-daraja — portlovchi moddalar (PM);

2-daraja — siqilgan, suyultirilgan va bosim ostida eritilgan gazlar;

3-daraja — yengil alangalanadigan suyuqliklar (EAS);

4-daraja — yengil alangalanadigan qattiq moddalar (EAQM), o‘zidan-o‘zi yonadigan moddalar (O‘O‘YoM), suv bilan o‘zaro aloqada alangalanuvchi gazlarni ajratib chiqaradigan moddalar;

5-daraja — oksidlovchi moddalar (OM) va organik peroksidlar;

6-daraja — zaharli moddalar (ZM) va infitsirlangan moddalar (IM);

7-daraja — radioaktiv materiallar (RM);

8-daraja — o‘yuvchi va (yoki) korrozion moddalar (O‘K);

9-daraja — boshqa xavfli moddalar.

II. Xavfli yuklarni tashishning alohida shartlari

4. Xavfli yuklarni avtotransport vositalarida tashish tashish shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Unga muvofiq tashuvchi unga yukni jo‘natuvchi tomonidan ishonib topshirilgan yukni olib borish punktiga yetkazish va uni yukni oluvchiga berish majburiyatini oladi, yukni jo‘natuvchi esa yuk tashilganligi uchun belgilangan haqni to‘lash majburiyatini oladi.

5. Yukni tashuvchi yukni tashish shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda yetkazib berishi kerak. Yukni yetkazib berish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch holatlarining amal qilish vaqtiga yoki taraflarning o‘zaro kelishuvi bo‘yicha uzaytirilishi mumkin. Yuk yetkazib berilishi kechiktirilishi to‘g‘risida sabablari va kechikish vaqtি ko‘rsatilgan holda yo‘l varaqasida belgi qo‘yiladi.

6. Tashuvchi, agar shartnomada o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, shartnomani bajarish uchun zarur bo‘lgan avtotransport vositalarining tiplari va sonini mustaqil belgilaydi.

Agar yukni jo‘natuvchini tashuvchi tomonidan muhayyo qilingan avtotransport vositasi qoniqtirmasa, u holda tegishli dalolatnama tuzib va uni tashuvchiga berib avtotransport vositasini rad etishga haqlidir.

Oldingi tahrirga qarang.

7. Xavfli yuklarni tashish uchun qo‘llaniladigan idish (upakovka) tiplari va parametrlari belgilangan texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

(7-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-martdagи 45-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 10-son, 105-modda)

8. Yukni jo‘natuvchi tomonidan tashish uchun yaroqli bo‘lmagan holatda taqdim etilgan va u tomonidan yukning o‘z vaqtida jo‘natilishini ta‘minlaydigan muddatda zarur holatga keltirilmagan yuk taqdim etilmagan deb hisoblanadi.

9. Tashuvchi, agar quyidagi holatlar bo‘yicha tashishda yukning saqlanishini ta‘minlay olmasa, yukni tashishga qabul qilishni rad etishi mumkin:

yuk zarur tarzda bo‘lmagan idishda yoki upakovkada taqdim etilgan;

yuk bajarish uchun qabul qilingan buyurtmaga muvofiq emas;

yukning taqdim etilgan partiyasi massasi avtotransport vositasining yuk ko‘tarish quvvatidan ortiq;

yuk tashish yo‘nalishining avtomobil yo‘li bo‘yicha harakat vaqtincha to‘xtatilganligi yoki cheklanganligi tufayli yetkazib berilishi mumkin emas.

10. Agar:

bunday tashish O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqilangan bo‘lsa;

tovar xususiyatiga ega bo‘lgan yuklar tovar-transport yuk xati bilan rasmiylashtirilmagan bo‘lsa yoki belgilangan tartibda tegishli sertifikatlarga ega bo‘lmasa;

tashish uchun taqdim etilgan yuklar xossalariiga ko‘ra bitta avtotransport vositasida birgalikda tashish uchun qo‘yilmasa;

yuk yo‘l harakati xavfsizligiga xavf tug‘dirsa va Yo‘l harakati qoidalari talablariga javob bermasa yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) yukni taqdim etmasligi, tashuvchi esa uni tashish uchun qabul qilmasligi kerak.

11. Yukni kuzatib borish shartnoma shartlariga muvofiq tashuvchi yoki buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

Tovar-transport yuk xatida yukni kuzatib boruvchi shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi ko‘rsatiladi.

12. Yukni jo‘natuvchi yukni tashishga taqdim etishda uning narxini e’lon qilishga haqlidir.

Yukning e’lon qilingan qiymati bo‘yicha tashuvchida shubha tug‘ilgan taqdirda u o‘z hisobidan ekspertlarni jalb qilishi va yukning real qiymati to‘g‘risida dalolatnama tuzishi mumkin.

13. Buyurtmachi tomonidan yukni jo‘natuvchilar tomonidan tamg‘alanib idishsiz, uyum, to‘kilgan holda tashiladigan yuklar, shuningdek tez buziladigan yuklar narxi e’lon qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

14. Bahosi e’lon qilingan yukni tashishga taqdim qilishda yukni jo‘natuvchi uch nusxada yuk o‘rinlari ro‘yxatini tuzishi shart. Ro‘yxatning bir nusxasi yukni jo‘natuvchida qoladi, ikkinchi

nusxasi — tashuvchida bo‘ladi. Uchinchi nusxasi yukni jo‘natuvchi tomonidan yuk o‘rnining ichiga solinadi.

15. Idishsiz, uyum, to‘kilgan holda, shuningdek konteynyerlarda, konteyner-sisternalarda tashiladigan yuklarni qabul qilib olish-topshirishda tovar-transport yuk xatida ushbu yuklar massasi ko‘rsatiladi.

16. Idishga solingan va donali yuklar yukni tashuvchi tomonidan tovar-transport yuk xatida yukning massasi va yuk o‘rinlari soni ko‘rsatilishi sharti bilan tashish uchun qabul qilinadi.

17. Idishli va donali yuklar massasi yukni jo‘natuvchi tomonidan ular tashishga taqdim etilishigacha belgilanadi va yuk o‘rinlarini markalashda ko‘rsatiladi. Ushbu yuklarni tashishda bitta avtovositasida tashiladigan yuk butun partiyasining umumiyligi massasi tarozida tortish yoki yuk o‘rinlari barcha massasini hisoblab chiqish yo‘li bilan aniqlanadi. Yuklarning ayrim turlari uchun massa hisob-kitob yo‘li, o‘lchash yoki hajm massasi bo‘yicha aniqlanishi mumkin.

18. Yukni jo‘natuvchi tovar-transport yuk xatiga yuk massasini yozishi va, agar massa to‘g‘ridan to‘g‘ri tortilmasdan aniqlangan bo‘lsa, uni aniqlash usulini ko‘rsatishi kerak.

19. Yuklar yukni jo‘natuvchi tomonidan tamg‘alangan yopiq avtovositasida yoki alohida seksiyalar, konteynyerlar yoki sisternalarda yoki konteyner-sisternalarda tashilsa, yuk massasi yukni jo‘natuvchi tomonidan belgilanadi.

20. Notovar xususiyatga ega bo‘lgan yuk massasini aniqlashda yukni jo‘natuvchi tortish yo‘li bilan 5—10 avtovositasini nazorat tartibida tortishni bajarishi, shundan keyin tegishli markadagi bitta avtovositasidagi yukning o‘rtacha massasini aniqlashi zarur.

21. Agar tashish uchun taqdim qilingan yukning idishi yoki o‘ramini sirtdan ko‘zdan kechirishda tashuvchi tomonidan yukning yo‘qotilishi, buzilishi yoki shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan nuqsonlar aniqlansa, yukni jo‘natuvchi nuqsonlarni bartaraf etishi yoki tashishda yukning saqlanishini ta‘minlaydigan boshqa ishlarni bajarishi kerak.

22. Yukning massasi yoki sonini aniqlash yukni jo‘natuvchida va yukni oluvchida bir xil usulda amalga oshiriladi. Tashish uchun yukni qabul qilib olishda massani aniqlash uchun butun yukning og‘irligini tarozida tortish zarur. Yukning alohida qismlarini tortish yo‘li bilan uning umumiyligi massasini aniqlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

23. Avtovosita taroziga soatiga 5 kilometrdan ortiq bo‘lmagan tezlikda yaqinlashadi. Avtovosita taroziga to‘xtamagan holda (yurgan holda) va dvigatel ishlab turgan vaqtida avtomobil tarozilarida tortish taqiqlanadi. Avtovosita taroziga qo‘yishda uning orqa o‘qi platforma chekkasidan 300 mm yaqinlikda bo‘lmagligi kerak.

24. Avtopoyezdlarni taroziga tortishda butun avtopoyezdni taroziga qo‘yish zarur. Agar platformaning o‘lchami butun avtopoyezdni qo‘yish imkonini bermasa, u holda avtovosita va tirkama alohida tortiladi. Bunda avtotirkamaning yakka shoti yerga tegmasligi kerak.

25. Yuklarni idishda, o‘ramda yoki mayda partiyalar bilan tashishga tayyorlashda yukni jo‘natuvchi har bir yuk o‘rnini markalash huquqiga ega.

Yukka tovar-transport yuk xatlari ma‘lumotlari markalashga muvofiq bo‘lishi kerak.

Yukning xossasini ko‘rsatish va yukni ortish (tushirish), tashish yoki saqlashning maxsus shartlariga rioya etish zarur bo‘lganda yukni jo‘natuvchi maxsus markirovkani (manipulatsiya belgilarini) bosishi zarur. Oghohlantiruvchi yozuvlar, agar yuk bilan munosabatda bo‘lish usulini manipulatsion belgilar bilan ifodalash mumkin bo‘lmagan taqdirda qo‘llaniladi.

26. Markalash yorliqlari idishga eng qulay, yaxshi ko‘rinadigan joylarga ishonchli mahkamlanishi zarur.

Yuklarni idishsiz, uyum yoki to‘kilgan holda tashishda markirovka amalga oshirilmaydi.

27. Yukni jo‘natuvchi bir yukni oluvchiga yuboriladigan furgon, konteynyerlar, konteyner-sisternalar va sisterna tipidagi kuzovli avtovosita taroziga tamg‘alash, yashiklar, qutilar va boshqa idishdagisi mayda donali tovarni esa, tamg‘alash yoki banderol qilish huquqiga ega.

Yukni tamg‘alash yoki banderol qilish holati tovar-transport yuk xatida qayd etiladi.

28. Bir necha manzillar bo‘yicha tashiladigan yukning saqlanishini ta‘minlash uchun yukni tashuvchi kuzovni alohida tamg‘alangan seksiyalarga ajratish imkonini beradigan to‘siqlar o‘rnatishi mumkin.

29. Yukni jo‘natuvchi tomonidan tamg‘alangan yuk yukni tashuvchi tomonidan yukni oluvchiga yukning massasi, holati va yuk o‘rinlari soni tekshirilmasdan topshiriladi.

30. Kuzovni tamg‘alash yukka yaqinlashish va avtotransport vositasi kuzovi, konteyner, konteyner-sisterna, seksiya yoki alohida yuk o‘rnidan tamg‘aning butunligini buzmasdan tamg‘ani olish imkoniyatini berishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Yuklarni banderol qilish o‘ramning butunligini buzmasdan yukka yaqinlashishni istisno qilishi kerak.

Yuk tushirish punktiga kelgandan keyin yukni oluvchi va haydovchi kelishuv bo‘yicha yukni tarozida takroran tortadi va qayta hisoblaydi.

31. Yukni avtotransport vositasiga ortish, shuningdek uni mahkamlash, uning ustini yopish, bog‘lash, tushirish, mahkamlagichlar, qoplamalarni olib qo‘yish, bortlar (sisterna yuklari)ni yopish va ochish, shlanglarni qo‘yib yuborish yoki shlangalarni olish, shlanglarning vintlarini oldinga burash yoki orqaga burash, agar shartnomada o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, yukni jo‘natuvchi (yukni oluvchi) tomonidan amalga oshiriladi.

32. Yukni tashuvchi buyurtmachi bilan kelishgan holda ortish-tushirish ishlarini bajarishni o‘z zimmasiga olishi mumkin.

Ortish ishlari faqat mexanizatsiyalashtirilgan usulda bajarilishi mumkin bo‘lgan og‘ir vaznli yuklar maxsus moslamalarga (halqa, teshik va boshqalarga) ega bo‘lishi kerak.

33. Yukni jo‘natuvchi (yukni oluvchi), agar shartnomada o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, ortish, tashish va tushirish uchun zarur bo‘lgan moslamalar va yordamchi materiallarni taqdim etishi, o‘rnatishi va olib tashlashi kerak.

34. Xavfli yuklarni tashish zaruriyati munosabati bilan avtotransport vositasini qayta jihozlash taqiqlanadi.

35. Yukni avtotransport vositasiga joylashtirish yoki mahkamlash yo‘l harakati xavfsizligi yoki yukning (avtotransport vositasining) saqlanishini ta‘minlash talablariga muvofiq emasligi tashuvchi tomonidan aniqlangan taqdirda, yukni tashuvchi bu haqda buyurtmachini xabardor qilishi va, agar shartnomada o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, qayd etilgan kamchiliklar buyurtmachi tomonidan bartaraf etilguniga qadar tashishni bajarishni to‘xtatishi kerak.

36. Tashuvchining avtotransport vositasi yukni ortish uchun kelish vaqtি ortish punktida yukni jo‘natuvchiga yo‘l varaqasi taqdim etilgan paytdan boshlab hisoblanadi, tashuvchining avtomobil transporti yukni tushirish uchun kelgan vaqt esa — tushirish punktida yukni oluvchiga tovar-transport yuk xati taqdim etilgan paytdan boshlab hisoblanadi.

37. Agar haydovchi tovar-transport yuk xatini olgan bo‘lsa va yuk avtotransport vositasi kuzovida bo‘lsa, yuk tashuvchining avtotransport vositasini yuklashi tugallangan deb hisoblanadi.

38. Agar yuk avtotransport vositasi kuzovidan to‘liq olingan, kuzovni yig‘ishtirish bo‘yicha barcha zarur ishlar bajarilgan va haydovchiga uzil-kesil rasmiylashtirilgan tovar-transport yuk xatlari topshirilgan bo‘lsa, yukni avtotransport vositasiga ortish tugallangan deb hisoblanadi.

39. Tovar va notovar xususiyatga ega bo‘lgan yuklarni tashish tovar-transport yuk xati bilan rasmiylashtirilishi kerak. Yukni jo‘natuvchida tovar-transport yuk xatlari blankalari mavjud bo‘lmasa, ular unga yuk tashuvchi tomonidan beriladi.

40. Ishiga vaqtbay tariflar bo‘yicha haq to‘lanadigan avtotransport vositalaridan foydalanish yo‘l varaqalari va tovar-transport yuk xatlari bilan rasmiylashtiriladi.

Yuk avtotransport vositasining tovar-transport yuk xatlari va yo‘l varaqalari qat’iy hisobot beriladigan hujjatlar hisoblanadi, bosmaxona usulida tayyorlanadi, hisobga olish seriyasi va tartib raqamiga ega bo‘ladi.

41. Avtotransport vositasi bilan yuklarni tashishga tovar-transport yuk xati yukni jo‘natuvchi tomonidan har bir borishga har bir yukni oluvchining nomiga to‘rt nusxada tuziladi, ulardan:

birinchi nusxasi yukni jo‘natuvchida qoladi va tovar-moddiy boyliklarni hisobga olish yoki hisobdan chiqarish (chiqib ketishi) uchun mo‘ljallanadi;

ikkinchi nusxasi yukni oluvchida qoladi va moddiy boyliklarni kirim qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

uchinchi va to‘rtinchi nusxalari yukni tashuvchida qoladi hamda yuk tashuvchining yukning jo‘natuvchi bilan hisob-kitob qilishi va avtotransport ishini hisobga olish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

42. Haydovchi (yoki yukni kuzatib boradigan shaxs) tovar-transport yuk xatining barcha nusxalariga imzo chekishi shart.

43. Tovar-moddiy boyliklar nomlarining katta miqdori bir yo‘la tashishga taqdim etilganda qistirma varaqlar — barcha qistirma varaqlarda tovar bo‘limida ko‘rsatilgan tovar-transport yuk xatining seriyasi va bosh varaqning tartib raqami takrorlangan holda 4 nusxada to‘ldiriladigan tovar-transport yuk xatining davomi qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yiladi.

44. Bir turdag'i yuklarni bir yukni jo‘natuvchidan ayni bir masofaga bir yukni oluvchining nomiga tashishda smena mobaynida avtotransport vositasi tomonidan bajarilgan ishga jamlangan bitta tovar-transport yuk xati rasmiylashtirilishi mumkin. Bunda oraliq yurishlarni rasmiylashtirish yukni jo‘natuvchi tomonidan haydovchiga har bir alohida yurishga talon berish yo‘li bilan amalgam oshiriladi.

Talon faqat berilgan kun uchun amal qiladi va uch nusxada to‘ldiriladi, ulardan biri yukni jo‘natuvchida, ikkinchisi — haydovchida va uchinchisi yukni oluvchida qoladi.

45. Yukni tashuvchi yukni tovar-transport yuk xatida ko‘rsatilgan yukni oluvchiga topshirishi kerak.

46. Yukni massasi va o‘rinlar soni bo‘yicha yukni oluvchiga topshirish yukni jo‘natuvchidan olingandagiga o‘xhash tartibda amalga oshiriladi (tarozida tortish, o‘lchash, yuk o‘rinlarini sanash va hokazo).

47. Avtotransport vositalarining shikastlanmagan kuzovlarida (konteyner-sistemalar va sisternalarda) kelgan va yukni kuzatuvchining shikastlanmagan tamg‘alariga ega bo‘lgan yuklar yukni oluvchiga yukning massasi, holati va yuk o‘rinlari soni tekshirilmasdan berilishi mumkin.

Standart og‘irlilik va yukni jo‘natuvchi tomonidan har bir yuk o‘rnida ko‘rsatilgan og‘irlilik bo‘yicha tashishga qabul qilingan idishli va donali yuklar yukni oluvchiga borish punktida faqat shikastlangan (agar shundaylar bo‘lsa) o‘rinlardagi yukning og‘irligi va holati tekshirilgan holda o‘rinlar sanog‘i bo‘yicha og‘irligi tortilmasdan topshiriladi.

Idishsiz yoki to‘kilgan holda tashiladigan, kamomad belgilarisiz kelgan yuklar yukni oluvchiga og‘irligi tekshirilmasdan topshirilishi mumkin.

48. Yukni yukni oluvchiga topshirishda, agar yuk yukni oluvchiga shikastlangan idish, avtotransport vositasining shikastlangan kuzovi yoki yukni jo‘natuvchining shikastlangan tamg‘alari bilan kelsa, yukni tashuvchi tovar-transport yuk xatiga muvofiq yuk massasini, yuk o‘rinlari sonini yoki yukning holatini tekshirishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

49. Yuk tashuvchiga bog‘liq bo‘limgan sabablar bo‘yicha yukni oluvchi yukni olishni rad etgan taqdirda yuk yukni tashuvchi tomonidan yukni jo‘natuvchiga qaytarilishi (agar shartnomada o‘zgacha xol nazarda tutilmagan bo‘lsa) yoki uning yozma ko‘rsatmasi bo‘yicha boshqa yukni oluvchiga berilishi mumkin. Yukni oluvchi tovar-transport yuk xatida, imzo bilan tasdiqlangan yukni qabul qilish rad etilganligi to‘g‘risidagi yozuvni qayd etishi kerak.

(49-bandı birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-avgustdagı 661-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.08.2019-y., 09/19/661/3571-son)

Yukni jo‘natuvchi yukni qayta yo‘llash yoki uni yukni jo‘natuvchiga qaytarish bilan bog‘liq qo‘sishimcha xarajatlarni to‘lashi kerak.

III. Xavfli yuklarni tashishni tashkil etish

Oldingi tahrirga qarang.

(50-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagı 503-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.07.2018-y., 09/18/503/1458-son)

51. Alovida xavfli yuklarni tashish maxsus mas'uliyatli shaxs — yukni jo'natuvchining (yukning oluvchining) xavfli yuklarning xossalari biladigan va ular bilan muomala qila oladigan vakilining majburiy kuzatuvida amalga oshiriladi.

Xavfli yuklarni avtotransport vositalarida tashish shartnomasi bo'yicha xavfli yukni kuzatib borish avtotransport vositasining haydovchisiga yuklangan hollarda haydovchiga xavfli yuk jo'natilishidan oldin xavfli yukning fizik-kimyoviy va zararlantiruvchi xossalari, u bilan muomala qilish va uni tashish qoidalari to'g'risida yukni jo'natuvchi (yukni oluvchi) tomonidan yo'riqnomalar berilgan bo'lishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

(51-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagagi 503-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.07.2018-y., 09/18/503/1458-son)

52. Xavfli yukka hamrohlik qilish uchun mas'ul shaxsning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- a) xavfli yuklar jo'natish joyidan borish joyigacha kuzatilishini va qo'riqlanishini ta'minlash, tashish yo'naliishiga qat'iy rioya qilish;
- b) qo'riqlash xodimlariga va avtotransport vositalari haydovchilariga yo'riqnomalar berish;
- v) xavfli yuk olinadigan joylarda xavfli yuklarni tashqi tomonidan ko'zdan kechirish (xavfli yuk o'ralishi va markalanishining to'g'riligini tekshirish) va ularni qabul qilib olish;
- g) xavfli yuk ortilishi va mahkamlanilishini kuzatish;
- d) avtotransport vositalari harakatlangan va to'xtab turgan vaqtida xavfsizlik qoidalari ga rioya qilish;
- e) tashishni amalga oshiruvchi xodimlarning shaxsiy xavfsizligi chora-tadbirlarini, jamoat va ekologik xavfsizlikni tashkil etish;
- j) belgilangan joyga kelgandan keyin xavfli yuklarni topshirish.

53. Xavfli yuklarni transportda tashish yo'naliishini ta'minlash ushbu tashishni bajaradigan tashuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

54. Xavfli yuklarni tashishda past va o'rtacha aktivlikdagi radioaktiv chiqindilar bundan mustasno tashish yo'naliishi:

(54-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 27-fevraldagagi 56-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2016-y., 9-son, 90-modda)

- a) Toshkent shahri bo'yicha — Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi;
- b) Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi va viloyatlar ichidagi yo'naliishlar bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalar;
- v) shaharlararo — viloyatlararo yo'naliishlar bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining Yo'l harakati xavfsizligi hududiy boshqarmalari;

Oldingi tahrirga qarang.

g) xalqaro yo'naliishlar bo'yicha — Ichki ishlar vazirligining Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, O'zbekiston avtomobil transporti agentligi, yo'l harakati xavfsizligi sohasida vakolatli organlar va paritet tomonning avtomobil transporti sohasida vakolatli organlari bilan kelishiladi.

(54-bandning "g" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

55. Transportda tashish yo'naliishini ishlab chiqishda yukni tashuvchi quyidagi asosiy talablarga amal qilishi kerak:

- a) transportda tashish yo'naliishi yaqinida muhim, yirik sanoat obyektlari bo'lmasligi kerak;

b) transportda tashish yo‘nalishi dam olish zonalari, arxitektura, tabiiy qo‘riqxonalar, alohida qo‘riqlanadigan hududlar va boshqalar orqali o‘tmasligi kerak, aholi punktlari orqali o‘tishdan maksimal qochish zarur;

v) transportda tashish yo‘nalishida avtotransport vositasi to‘xtash joylari va yonilg‘i quyish shoxobchalari nazarda tutilishi kerak;

g) transportda tashish yo‘nalishi yirik aholi punktlari orqali o‘tmasligi kerak. Istisno hollarda xavfli yuklarni yirik aholi punktlari ichi orqali tashish zarur bo‘lganda harakat yo‘nalishlari tomosha, madaniy-ma’rifiy, o‘quv, maktabgacha va davolash muassasalari yaqinidan o‘tmasligi kerak.

56. Xavfli yuklarni transportda tashish yo‘nalishlarini kelishish uchun yukni tashuvchi tashish boshlanishidan kamida o‘n kun oldin hududi bo‘ylab xavfli yukni tashish mo‘ljallanayotgan hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

a) belgilangan shakl bo‘yicha tashishning ishlab chiqilgan yo‘nalishi uch nusxada;

b) avtotransport vositasini xavfli yuklarni tashishga qo‘yish to‘g‘risidagi guvohnoma;

v) alohida xavfli yuklar uchun qo‘srimcha ravishda yukni jo‘natuvchi (yukni oluvchi) tomonidan taqdim etilgan xavfli yukni tashishga maxsus yo‘riqnomasi;

Oldingi tahrirga qarang.

g) O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasining xavfli yuklarni tashish uchun sig‘im (konteynyerlar, sisternalar, konteyner-sisternalar va hokazolar)ning yaroqliligi to‘g‘risidagi xulosasi;

(56-bandning “g” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-martdagagi 195-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.03.2019-y., 09/19/195/2712-son)

d) avtotransport haydovchisi xavfli yuklarni tashishga qo‘yilishi to‘g‘risidagi guvohnoma;

Oldingi tahrirga qarang.

(56-bandning “e” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagagi 503-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.07.2018-y., 09/18/503/1458-son)

Oldingi tahrirga qarang.

57. Hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari bilan kelishilgan transportda tashish yo‘nalishi marshrutda ko‘rsatilgan muddatga haqiqiydir. Bunday muddat ko‘rsatilmagan hollarda xavfli yuk kelishilgan kundan boshlab olti oy mobaynida kelishilgan yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

(57-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagagi 503-sonli qaroriga tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.07.2018-y., 09/18/503/1458-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Aholi punktlarida xavfli yuklarni tashishga past va o‘rtacha aktivlikdagi radioaktiv chiqindilar bundan mustasno faqat kunduz kuni avtotransport vositalari harakati minimal intensivlikda bo‘lgan avtomobil yo‘llari bo‘ylab yo‘l qo‘yiladi.

(57-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 27-fevraldagagi 56-sonli qaroriga tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 9-son, 90-modda)

58. Kelishilgan yo‘nalishni o‘zgartirishni talab qiladigan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, yukni tashuvchi xavfli yuklarni tashishga yangi yo‘nalishni dastlabki yo‘nalish kelishilgan hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari bilan kelishishi shart.

59. Kelishilgan yo‘nalishning bir nusxasi tegishli hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasida, ikkinchisi — yukni tashuvchida saqlanadi, uchinchi nusxasi — xavfli yuklarni tashish vaqtida mas’ul shaxsda, u bo‘limganda esa — haydovchida turadi.

60. Xavfli yuklarni tashishga qabul qilish va ularni yukni jo‘natuvchiga topshirish og‘irligi bo‘yicha, idishga solingan xavfli yuklar esa — yuk o‘rinlari soni bo‘yicha amalga oshiriladi.

61. Xavfli yuk yuk tashuvchi tomonidan tashishga yukni jo‘natuvchi tomonidan DS R50587-93. “Modda (material) xavfsizligi pasporti. Asosiy qoidalar. Ishlab chiqarish, qo‘llash, saqlash,

transportda tashish, utilashtirishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha axborot" bo'yicha moddaning xavfsizligi pasporti taqdim etilgach qabul qilinadi.

62. Xavfli yuklarni tashishga qabul qilishda xavfli yuklar tashilishi uchun mas'ul shaxs idishda yuk birligiga transport xavfsizligini tavsiflaydigan maxsus markalash mavjudligini tekshirishi kerak.

63. Xavf to'g'risidagi axborot tizimi quyidagi asosiy elementlardan:

a) tashiladigan xavfli yukning darajasini belgilash uchun avtotransport vositasiga o'rnatiladigan axborot jadvali (ushbu Qoidalarga 6-ilova*);

* 6-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

b) avariyalarni yoki noxush hodisalarini va ularning oqibatlarini tugatish bo'yicha tadbirlarni belgilash uchun avariya kartochkasi;

v) axborot jadvalida ko'rsatilgan shoshilinch choralar kodini yoyib ko'rsatish uchun XTATning axborot kartochkasi (ushbu Qoidalarga 7-ilova*);

* 7-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

g) avtotransport vositalaridagi maxsus bo'yoq va yozuvlardan iborat bo'ladi.

64. XTATni tashkil etish xavfli yuklarni tashiydigan tashuvchilar va buyurtmachilarga yuklanadi.

65. Axborot beruvchi XTAT xavfli yuklarni tayyorlaydigan tashkilotlar tomonidan tayyorlanadi hamda avtotransport vositasining oldiga va orqasiga maxsus moslamalarda o'rnatish uchun yukni tashuvchiga beriladi.

66. Avtotransport vositalarini belgilash uchun axborot jadvallari quyidagi talablarga rioya qilgan holda tayyorlanadi:

a) jadvalning umumiyligi foni — oq;

b) "ShChK" va "BMT №" — grafalari foni — to'q sariq;

v) jadvallar o'lchami 690x300 mm, o'ng qismi 400x300 mm, so'l qismi 290x300mm;

g) jadval ramkasi, ustunlarni ajratish chiziqlari, raqamlar va matnning harflari qora rangda bajariladi;

d) ustunlarning nomi (ShChK, BMT №) va "O'yuvchi modda" xavf belgisidagi yozuv oq rangda bajariladi;

e) xavf belgisi ramkasi belgi chetidan 5 mm masofada qalinligi kamida 5 mm bo'lgan qora rangdagi chiziq bilan tushiriladi;

j) "ShChK" va "BMT №" ustunlaridagi harflarning qalinligi 15 millimetrga, xavf belgisidagi qalinligi kamida 3 millimetrga teng;

z) jadvalning ramkasi va ajratish chiziqlari 15 millimetrga teng qalinlikda tushiriladi;

i) shoshilinch choralarining harf-raqam kodi harflar va raqamlarning istalgan tartibida yoziladi.

67. XTAT avariya kartochkasi xavfli yukni tayyorlovchi tashkilot tomonidan to'ldiriladi va yo'l varaqasiga qo'shimcha sifatida ilova qilinadi.

Avariya kartochkasi xavfli yuklarni tashiydigan avtotransport vositalari haydovchisida turishi kerak. Xavfli yukka mas'ul shaxs — mijozning vakili hamrohlik qilgan taqdirda avariya kartochkasi unda turishi kerak.

XTATning axborot kartochkasi 130 millimetrga 60 mm o'lchamli qalin qog'ozda tayyorlanadi. Kartochkaning yuza tomonida axborot jadvallari yoyilib beriladi, orqa tomonida esa xavf belgilari namunalari keltiriladi.

Yong'in chiqqanda va oqqan taqdirda shoshilinch choralar kodi (ShChK), shuningdek muddaning oqova suvlarga tushishi oqibatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ham raqamlar bilan belgilanadi.

Odamlarni himoya qilishda shoshilinch choralar kodi (ShChK) harflar bilan belgilanadi. Harflarni tanlash qo'llaniladigan kodning eng xarakterli so'zları boshlang'ich harflari bo'yicha amalga oshiriladi:

N — nafas olish apparati va himoya qo'lqoplari zarur;

YO — faqat yong'in chiqqanda nafas olish apparati va himoya qo'lqoplari zarur;

K — himoyalovchi kiyim-boshlarning to'liq to'plami va nafas olish apparati zarur;

E — odamlarni evakuatsiya qilish zarur.

68. Xavfli yuklarni tashishda noxush hodisa yuzaga kelgan taqdirda noxush hodisani va uning oqibatlarini tugatish tadbirlari avariya kartochkasida keltirilgan ko'rsatmalarga yoki XTAT axborot jadvali bo'yicha shoshilinch choralar kodiga muvofiq amalga oshiriladi.

69. Tashiladigan xavfli yukni to'liq identifikatsiya qilish axborot jadvalidagi va XTAT axborot kartochkasidagi, shuningdek ushbu xavfli yukni tashishga buyurtmanomada (bir martalik buyurtmanomada) mavjud BMT ro'yxati bo'yicha raqamlashga muvofiq amalga oshiriladi.

70. Xavfli yuklarni tashishda doimiy band bo'lган avtotransport vositalari kuzovi, avtotsisternalar, tirkamalar va yarim tirkama-sisternalar ushbu xavfli yuklar uchun belgilangan tanituvchi rangga bo'yalishi va quyidagi tegishli yozuvlar yozilishi kerak:

a) metanolni tashishda avtotransport vositasi (sisterna) "Metanol — zahar!" qoplama bo'yicha to'q sariq yozuvli va qora polosali to'q sariq rangga bo'yaladi;

b) ammiakni tashishda — avtotransport vositasining rangi har qanday rangda bo'ladi va "Ammiakli SUV — Yong'in jihatidan xavfli" yozuvi yoziladi;

v) suvgan tekkanida tez alangalanadigan gazlar chiqaradigan moddalarni tashishda avtotransport vositasi ko'k rangga bo'yaladi va "Yong'in jihatidan xavfli" yozuvi yoziladi;

g) o'zi yonadigan moddalarni tashishda avtotransport vositasi (sisterna)ning quyi qismi qizil rangga bo'yaladi, yuqori qismi oq rangga bo'yaladi va qora rangda "Yong'in jihatidan xavfli" yozuvi yoziladi;

d) tez alangalanadigan moddalarni tashishda avtotransport vositasi (sisterna) to'q sariq rangga bo'yaladi va "Yong'in jihatidan xavfli" yozuvchi yoziladi;

e) yonishni kuchaytiradigan moddalarni tashishda avtotransport vositasi (sisterna) sariq rangga bo'yaladi va ikki marta "Yong'in jihatidan xavfli" yozuvi yoziladi;

j) o'yuvchi moddalarni tashishda avtotransport vositasi (sisterna) qoplama bo'ylab qora polosali sariq rangga bo'yaladi, unga sariq rangli "O'yuvchi modda" degan yozuv yoziladi.

71. Xavfli yuklarni tashiydigan avtotransport vositalariga yoziladigan harflarning bo'y, ushbu Qoidalarning [67 — 69-bandlarida](#) qayd etilgan hollaridan tashqari kamida 150 mm, qora rangda bo'lishi kerak.

72. Avtotransport vositalarida xavfli yuklar ortilishi, tushirilishi operatsiyalarini xavfli yukni kuzatib borayotgan mas'ul shaxs (mijozning vakili) nazorat qiladi.

73. Avtotransport vositasiga yuk ortishga uning to'liq yuk ko'tarishigacha foydalanishga yoki xavfli yuklarning ayrim turlarini transportda tashish uchun tayyorlovchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladigan maxsus yo'riqnomalarda qayd etilgan hajmda va tartibda yo'l qo'yiladi.

74. Xavfli yuklarni avtotransport vositasiga ortish-tushirish va mahkamlash ishlatishda uchqun chiqarmaydigan mexanizmlar va asboblar qo'llanilgan holda idishga turtki, zarba, ortiqcha bosim bosilishiga yo'l qo'yilmay ehtiyojkorlikning barcha choralariga rioya etgan holda mijozning kuch va vositalari bilan amalga oshiriladi.

75. Xavfli yuklar bilan ortish-tushirish ishlari avtotransport vositasi dvigateli o'chirilgan holda amalga oshiriladi va haydovchi, agar bu yukni jo'natuvchining yo'riqnomasida qayd etilgan bo'lsa, ortish-tushirishning belgilangan zonasidan tashqarida turishi kerak. Avtomobilga o'rnatilgan yuk ko'tarish yoki to'kish mexanizmlarining harakatga keltirilishi ishlab turgan dvigatelda ta'minlangan hollar bundan mustasno.

76. Xavfli yuklar bilan ortish-tushirish operatsiyalari maxsus jihozlangan ortish-tushirish joylarida (postlar, maydonlarda) amalga oshirilishi kerak. Bunda bittadan ortiq bo'lgan avtotransport vositasida bir vaqtning o'zida ortish-tushirish ishlari amalga oshirilishi mumkin.

Xavfli yuklar bilan ortish-tushirish ishlarini bajarish davrida ortish-tushirish joylari (postlar, maydonlar) maxsus tayyorlangan soqchilar bilan ta'minlanadi.

77. Begona shaxslarning xavfli yuklarni ortish-tushirish uchun ajratilgan ortish-tushirish joylarida (postlar, maydonlarda) hozir bo'lishi, shuningdek xavfli yuklar ortilgan avtomobillar yaqinida odamlar va yuklarning to'planishi taqiqlanadi.

78. Momoqaldiroq paytida yong'in jihatidan xavfli yuklar bilan ortish-tushirish ishlarini bajarish taqiqlanadi.

79. Qo‘lda bajariladigan xavfli yuklar bilan ortish-tushirish operatsiyalari ushbu ishlarni bajarishga jalgan etilgan xodimlarning shaxsiy xavfsizligi choralariga riosa etilgan holda bajarilishi kerak.

80. Idishning shikastlanishi va xavfli yukning o‘z-o‘zidan ag‘darilishi xavfini yaratadigan yukni ortish-tushirish mexanizmlarining yuk ko‘tarish qurilmalaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

81. Ortish-tushirish operatsiyalari jarayonida xavfli yuklar solingan bochkalarning joyini o‘zgartirish va omborxona ishlarini bajarish faqat maxsus o‘rnatilgan tagliklar, traplar va narvonlarda amalga oshirilishi mumkin.

82. Yashiklar, korzinalar, barabanlar yoki panjaralarga joylashtirilgan xavfli yuklar solingan shishalar ortish-tushirish operatsiyalarini bajarishda oraliqlar inert taglik material bilan to‘ldirilishi sharti bilan maxsus telejkalarda joyi o‘zgartirilishi kerak.

Butillarni orqada, yelkada yoki o‘zining oldida ko‘tarish taqiqlanadi.

83. Xavfli yuylarni ortish, tushirish va qayta yuklash joylari (postlar), shuningdek avtomobillar to‘xtash joylari ular turar joy va ishlab chiqarish imoratlari, yuk omborlaridan 125 m yaqin bo‘lmagan va magistral yo‘llardan kamida 50 m uzoqlikda bo‘lgan tarzda tanlanadi.

Ortish-tushirishni kutayotgan avtotransport vositalari ortish-tushirish joylari (postlar, maydonlardan) kamida 25 m masofada bo‘lishi kerak.

84. Tayg‘oqchilikda xavfli yuylarni ortish va tushirish ortish-tushirish joylari (postlar, maydonlar) hududiga qum sepilishi kerak.

85. Yoqilg‘ilar yoki portlash xavfi bo‘lgan yuklar ortilgan avtotransport vositalariga umumiyo‘n foydalilanidigan turg‘un avtomobilarga yonilg‘i quyish shoxobchalarida yoki ko‘chma avtomobilarga yonilg‘i quyish shoxobchalarida yoqilg‘i quyish avtomobilarga yonilg‘i quyish shoxobchasiidan kamida 25 m masofada joylashgan maxsus jihozlangan maydonda avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchasiidan olingan neft mahsulotlarini quyish orqali amalga oshiriladi.

86. Xavfli yuylarni ortish-tushirish boshlanishidan oldin hamrohlik qiluvchi shaxslar va ortish-tushirishning rahbari yong‘in kelib chiqqanda yoki portlash xavfida avtotransport vositalarini xavfsiz masofaga olib o‘tish imkoniyatini nazarda tutishlari shart.

87. Xavfli yuylarni tashishda avtotransport vositalari harakati tezligini cheklash tashish yo‘nalishini kelishgan holda aniq yo‘l sharoitlari hisobga olingan holda hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari tomonidan belgilanadi. Harakat tezligini cheklash belgilangan taqdirda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan tezlik ko‘rsatilgan belgi avtotransport vositasida yo‘l harakati qoidalariga muvofiq o‘rnatilishi kerak.

Yo‘lda bo‘lish vaqtiga 8 soatdan ortiqni tashkil etgan taqdirda har bir avtotransport vositasiga ikki nafar haydovchi ajratiladi.

88. Xavfli yuklar avtotransport vositalari kolonnasida tashilganda quyidagi talablarga riosa qilinishi kerak:

tekis yo‘lda harakatlanishda avtotransport vositalari o‘rtasidagi masofa kamida 50 m bo‘lishi kerak;

tog‘ sharoitlarida — ko‘tarilish va pastga tushishlarida kamida 300 m;

ko‘rish 300 metrdan kam bo‘lganda (tuman, yomg‘ir, qor va hokazolar) ayrim xavfli yuylarni tashish taqiqlanishi mumkin.

Yukni jo‘natuvchi (yukni oluvchi)ning vakillaridan bo‘lgan tashish uchun mas’ul shaxs, kolonna bo‘yicha katta — birinchi avtotransport vositasi kabinasida bo‘lishi shart.

Oldingi tahrirga qarang.

(88-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagagi 503-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.07.2018-y., 09/18/503/1458-son)

Oldingi tahrirga qarang.

89. Xavfli yuylarni tashishda past va o‘rtacha aktivlikdagi radioaktiv chiqindilar bundan mustasno haydovchilarning dam olish uchun aholi punktlarida to‘xtash taqiqlanadi. To‘xtash

joylarida to‘xtashga buning uchun maxsus ajratilgan, turar joy imoratlari va odamlar to‘planadigan joylardan kamida 200 m masofada joylashgan maxsus ajratilgan joylarda ruxsat beriladi.

(89-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 27-fevraldagi 56-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 9-son, 90-modda)

Avtotransport vositasi to‘xtaganda yoki to‘xtash joyida to‘xtash tormozi ishga tushirilishi, qiyalikda qo‘s Shimcha ravishda jilishga qarshi tirgak o‘rnatalishi kerak.

90. Yo‘lda yonilg‘i quymasdan xavfli yukni tashiydigan avtotransport vositalarining yurish zaxirasi kamida 500 km bo‘lishi kerak. Xavfli yuklar 500 km ga va undan ortiq masofaga tashilganda avtotransport vositasi hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi bilan kelishgan holda zaxira yonilg‘i baki bilan jihozlanishi kerak.

Agar yo‘nalishning uzunligi 400 kilometrdan ortiq bo‘lsa yoki tashish kechasi amalga oshirilsa, xavfli yuklarni tashiydigan avtotransport vositalarining bir haydovchi bilan harakatlanishi taqiqlanadi.

Qish vaqtida tog‘ sharoitlarida xavfli yuklarni tashishda yukni tashuvchilar avtotransport vositalarini protektorning qishgi shinalari bilan butlashlari kerak.

Oldingi tahririga qarang.

91. Ikkitanidan ortiq avtotransport vositasida kolonna bo‘lib alohida xavfli yuklarni tashish tashuvchining harakat xavfsizligi xizmati avtomobilari kuzatuvida amalga oshiriladi.

(91-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagi 503-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.07.2018-y., 09/18/503/1458-son)

Oldindagi kuzatuvchi avtomobil xavfli yuklar ortilgan avtotransport vositalaridan oldinda harakatlanishi kerak. Bunda uning ortida harakatlanadigan avtotransport vositasiga nisbatan kuzatuvchi avtomobil uning orqasida harakatlanayotgan avtomobilning gabariti kengligi bo‘yicha kuzatilayotgan avtotransport gabariti turtilib chiqayotgan etib yon berib harakatlanishi kerak.

Kuzatib boradigan avtomobil to‘q sariq yoki sariq rangdagi yorqin mayoq bilan jihozlanishi kerak. Uning yoqilishi yo‘l harakatining boshqa qatnashchilarini ogohlantirish uchun qo‘s Shimcha axborot vositasi hisoblanadi.

Kuzatuvchi avtomobillarda va xavfli yuklarni tashiyotgan avtotransport vositalariga istalgan vaqtida (shu jumladan kunduz kuni) yaqin chiroq farasi yoqilgan bo‘lishi kerak.

92. Kuzatuvchi avtomobillar harakati tartibi va xavfli yuklar tashilayotganligi to‘g‘risida yo‘l harakatining boshqa qatnashchilarini xabardor qilish usullari yo‘nalishni kelishish blankasining “Harakatning alohida shartlari” bo‘limida hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari tomonidan ko‘rsatiladi.

93. Xavfli yuklarni ikki va undan ortiq avtomobilda kolonnada tashishda uning tarkibida yuklarning mazkur turini tashishga moslashtirilgan, Xavfli yuklarni tashishga qo‘yish to‘g‘risidagi guvohnoma rasmiylashtirilgan zaxira bo‘sh avtotransport vositasi mavjud bo‘lishi shart. Zaxira avtotransport vositasi kolonnaning oxirida borishi kerak.

Tonneldan o‘tishda xavfli yuklarni tashiyotgan avtotransport vositalari harakati bitta transport vositasi bo‘yicha ruxsat beriladi.

94. Bir avtotransport vositasida (bir konteynerda) xavfli yuklarning turli darajalarini birgalikda tashishga faqat turli darajadagi xavfli yuklarni tashishda moslik jadvalida ifodalangan yo‘l qo‘yiladigan muvofiqlik qoidalari doirasida ruxsat beriladi (ushbu Qoidalarga 8-ilova*).

* 8-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

95. Umumiyl vazifali yuklar bilan birga xavfli yuklarni bitta avtotransport vositasida (bitta konteynerda) birgalikda tashish xavfli yuklarni va umumiyl maqsadli yuklarni tashishda moslik jadvalida ifodalangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi (ushbu Qoidalarga 9-ilova*).

* 9-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

96. Xavfli yuk transportda tashilgandan keyin tozalanmagan bo‘sh idishni tashish ushbu Qoidalalar talablariga muvofiq ushbu xavfli yukni tashishdagiga o‘xshash tartibda amalga oshiriladi.

Bo‘sh idishni tashishga tovar-transport yuk xatida qizil rangda bungacha tashilayotgan idishda qanday xavfli yuk bo‘lganligi to‘g‘risida belgi qo‘yiladi.

97. Bo'sh idishni tozalash ekologik xavfsizlik va yakka tartibdagi himoya choralariga rioya qilingan holda mijozning kuchlari va vositalari bilan amalga oshiriladi.

98. Idish to'liq tozalangandan keyin uni tashish umumiy vazifali yuklar singari umumiy asoslarda amalga oshiriladi, bunda mijozning tovar-transport yuk xatiga qizil rangda "Idish tozalandi" degan belgi qo'yiladi.

99. Tashkilot-mijozlar har bir tashishga avariyalı vaziyatda xatti-harakatlar rejasini ishlab chiqadilar va uni haydovchiga (kuzatib boruvchiga) topshiradilar, avariyalar yoki noxush hodisalar oqibatlarini tugatish bo'yicha amalda ishslash uchun avariya brigadalarini ajratadilar va ular bilan tegishli tayyorgarlikni tashkil etadilar.

100. Xavfli yuklar solingen idishning nosozligini tuzatish bo'yicha ta'mirlash ishlari olib borish zarurligi holatida bu ishlar avariya brigadasi tomonidan ushbu maqsadlar uchun maxsus ajratilgan maydonda (binoda) amalga oshiriladi. Uning joylashishi avariyalar yoki noxush hodisalar oqibatlarini tugatish tadbirlari rejasida belgilanadi.

101. Yo'l-transport hodisasi yuz berган taqdirda xavfli yukni tashish uchun mas'ul bo'lgan shaxs haydovchilar yoki qo'riqchilar xatti-harakatiga rahbarlik qiladi, hududiy ichki ishlar organlari, yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligini xabardor qiladi hamda hodisa yuz berган joyni o'rashni (belgilashni) va xavfli yuk qo'riqlanishini tashkil etadi.

Oldingi tahrirga qarang.

(101-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagagi 503сонли qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.07.2018-y., 09/18/503/1458-son)

102. Avariya yoki noxush hodisa joyiga kelgan avariya brigadasi uning oqibatlarini tugatish davomida ehtiyyotkorlikning va XTATning avariya kartochkasida sanab o'tilgan yakka tartibdagi himoyaning barcha choralarini ko'rishlari kerak.

103. Avariya yoki noxush hodisa yuz berган holda avariya brigadasining xatti-harakatlari:

a) shikastlangan idishni yoki sochilib ketgan (quyilib ketgan) xavfli yukni aniqlash va uzoqlashtirishni;

b) jabrlanganlarga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishni;

v) zaruriyat bo'lganda haydovchilarni va ushbu tashishga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni evakuatsiya qilishni;

g) xavfli zona o'lchami va chegaralarini aniqlashni, uning perimetri bo'ylab postlar qo'yilishi tashkil etilishini;

d) dezaktivatsiya, dezinfeksiya yoki degazizatsiya o'tkazilishini;

e) maxsus kiyim-bosh va individual himoya vositalari zararsizlantirilishini;

j) atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararli ta'sir bartaraf etilishini;

z) yuz berган avariyalar yoki noxush hodisalar to'g'risida yukni jo'natuvchi va yukni oluvchini xabardor qilishni o'z ichiga oladi.

104. Tashish jarayonida avariyalar yoki noxush hodisalar yuz berган taqdirda avariya brigadasi va maxsus xizmatlar kelguniga qadar ularning oqibatlarini dastlabki bartaraf etish maxsus tayyorgarlik yoki yo'riqnomaliga talablariga muvofiq haydovchi va kuzatib boruvchi mas'ul shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

IV. Tashish jarayoni qatnashchilarining huquq va majburiyatları

105. Yukni tashuvchi yukni jo'natuvchiga tashish uchun buyurtmanoma berganda tovar-transport yuk xatini (to'rt nusxada) va XTAT avariya kartochkasini taqdim etishi kerak, ular xavfli moddalarni tayyorlovchining ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladi.

106. Xavfli yukni tashishga tayyorlashda yukni jo'natuvchi idishning (upakovkaning) butunligi va sozligini, markalash va tamg'alar borligini, shuningdek asbob-uskunalar va ortish-tushirish maydonlarining texnik yoritilanligi ushbu Qoidalar talablariga muvofiqligini tekshirishi shart.

107. Yukni oluvchi xavfli yuklarni tushirish tamom bo'lgandan keyin avtotransport vositasi kuzovi (konteynyerlar, konteyner-sisternalar, tank-konteynyerlar) ushbu xavfli yuk qoldiqlaridan tozalashi va, zaruriyat bo'lganda, xavfsizlik choralariga rivoja qilgan holda avtotransport vositasi

(konteynyerlar, konteyner-sisternalar)ni degazatsiya, dezaktivatsiya yoki dezinfeksiya qilishi hamda avtotransport vositasi (konteynyerlar, konteyner-sisternalar, tank-konteynyerlar)da o‘rnatilgan xavf belgilarini olib qo‘yishi kerak.

108. Yukni tashuvchi xavfli yuklarni tashishda, zaruriyat bo‘lganda, avtotransport vositalarini ushbu Qoidalar talablariga muvofiq asbob-uskunalar bilan to‘liq jihozlashi, shuningdek xavfli yuklar bilan ishslashda mashg‘ul bo‘lgan xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni maxsus tayyorlashni yoki ularga yo‘riqnomaga berilishini tashkil etishi hamda ularni yakka tartibdagi himoya vositalari bilan ta’minlashi kerak.

Avtotransport vositalari haydovchilari, bundan tashqari ushbu Qoidalarga muvofiq XTAT huquqiy axborot kartochkalari bilan ham ta’minlanishi kerak.

109. Xavfli yuklarni tashiydigan haydovchi quyidagilarni o‘z ichiga oladigan maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi kerak:

- a) XTATni o‘rganish (avtotransport vositalari va upakovkaga belgi qo‘yish);
- b) tashilayotgan xavfli yuklarning xossalarni o‘rganish;
- v) noxush hodisalarda jabrlanganlarga bиринчи тиббиёй юрдам ко‘rsatish usullariga o‘qitish;
- g) noxush hodisa yuz bergandagi xatti-harakatlarga o‘qitish (xatti-harakat tartibi, yong‘inni o‘chirish, birlamchi degazatsiya, dezaktivatsiya va dezinfeksiya);
- d) yuz bergen noxush hodisa to‘g‘risida bildirishnomaga (axborot) tayyorlash va tegishli mansabdar shaxslarga yetkazish.

110. Xavfli yuklarni tashishga ushbu toifadagi avtotransport vositasi haydovchisi sifatida kamida uch yil uzluksiz ish stajiga va avtotransport haydovchisini xavfli yuklarni tashishni amalga oshirayotgan xavfli yukni tashishga qo‘yish to‘g‘risidagi guvohnomaga ega bo‘lgan haydovchilar qo‘yiladi.

111. Xavfli yukni tashishni amalga oshirayotgan haydovchining yonida xavfli yuklarni tashish Qoidalarda nazarda utilgan transport hujjatlari, shuningdek:

- a) avtotransport vositasi xavfli yuklarni tashishga qo‘yilishi to‘g‘risidagi guvohnoma;
- b) avtotransport vositasi haydovchisi xavfli yuklarni tashishga qo‘yilishi to‘g‘risidagi guvohnoma (ushbu Qoidalarga 10-ilova^{*});

* 10-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

- v) XTATning avariya kartochkasi;
- g) yukni tashuvchi, yukni jo‘natuvchi, yukni oluvchining mansabdar shaxslari, hududiy ichki ishlar organlari, yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi va O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining harakatlanish yo‘nalishida joylashgan navbatchi qismlarining manzili va telefon raqamlari;

Oldingi tahrirga qarang.

d) O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasining sig‘imning xavfli yuklarni tashish uchun yaroqliligi to‘g‘risidagi xulosasi;

(111-bandning “d” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-martdagi 195-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.03.2019-y., 09/19/195/2712-son)

e) hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari bilan kelishilgan yo‘nalish sxemasi bo‘lishi kerak.

112. Xavfli yuklarni tashishda haydovchiga belgilangan va hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari bilan kelishilgan yo‘nalishdan va to‘xtab turish joylaridan chetga chiqish, shuningdek belgilangan harakat tezligini oshirish taqiqlanadi.

113. Avtotransport vositasi yo‘lda buzilib qolganda va texnik nosozlikni haydovchining kuchi bilan joyning o‘zida bartaraf etish imkonini bo‘lmaganda haydovchi tashishlarga texnik xizmat ko‘rsatish mashinasini chaqirishi va o‘zi majburiy to‘xtagan joy to‘g‘risida eng yaqindagi hududiy ichki ishlar organlariga xabar qilishi kerak.

114. Noxush hodisa yuz berganda haydovchi:

- a) begona shaxslarni noxush hodisa joyiga qo‘ymasligi;

b) yuz bergen noxush hodisa to‘g‘risida eng yaqindagi hududiy ichki ishlar organlariga xabar qilishi kerak. Avariya vaziyati yuzaga kelganda, buning natijasida xavfli yuk shikastlanganda Favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy organlariga xabar qilishi;

v) jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishi;

g) avariya brigadasini chaqirishi;

d) avariya kartochkasida ko‘rsatilganiga muvofiq noxush hodisa oqibatlarini birlamchi tugatish choralarini ko‘rishi va xavfli yuk tashilishi uchun mas‘ul bo‘lgan shaxsning ko‘rsatmalariga muvofiq ish ko‘rishi;

e) hududiy ichki ishlar organlari va boshqa vakolatli organlarning vakillari yuz bergen noxush hodisa joyiga kelgach ularni xavf hamda ko‘rilgan choralar to‘g‘risida xabardor qilishi va tashilayotgan xavfli yukka transport hujjatlarini ko‘rsatishi kerak.

115. Xavfli yuk ortilgan avtovtransport vositasini boshqarishda haydovchiga:

a) avtovtransport vositasini joyidan keskin siljitish;

b) soatiga 30 kilometrdan ortiq tezlikda harakatlanayotgan transportni aylanib o‘tish;

v) keskin tormoz berish;

g) ishlab turgan ulash (ssepleniye) va dvigatellar bilan harakatlanish;

d) avtomobil yo‘llarining dovon uchastkalaridan o‘tish vaqtida tezlik richagini bir pozitsiyadan boshqa pozitsiyaga o‘tkazish;

e) harakat vaqtida avtovtransport vositasida chekish (avtovtransport vositasi to‘xtab turgan joydan 50 m yaqin bo‘limgan joyda to‘xtash vaqtida chekishga ruxsat beriladi);

j) ochiq olovdan foydalanish (istisno hollarda ovqat tayyorlash uchun avtovtransport vositasi to‘xtash joyidan kamida 200 m masofada olov yoqish mumkin);

z) avtovtransport vositasini nazoratsiz qoldirish taqiqlanadi.

116. Xavfli yukni tashiyotgan avtovtransport vositasida bir vaqtning o‘zida tovar-transport hujjatlarida ko‘rsatilmagan boshqa yukni hamda begona shaxslarni tashish taqiqlanadi.

117. Xavfli yukni tashiyotgan avtovtransport vositasini kuzatib borayotgan xodimlar (tashish uchun mas‘ul shaxs, soqchilar, dozemetrish va boshqalar) tashkilotning — yukni tashuvchining ushbu yo‘nalish bo‘yicha ularning xavfli yuklarni kuzatib borish huquqini tasdiqlaydigan maxsus tayyorgarlikdan o‘tganlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomasiga ega bo‘lishlari shart. Ma’lumotnomaga kuzatib borayotganning shaxsini tasdiqlaydigan hujjat taqdim etilganda haqiqiy hisoblanadi.

118. Xavfli yuklar bilan ortish-tushirish ishlarini bajarishga qo‘llaniladigan ko‘tarish-transport uskunasida kamida uch yillik stajga ega bo‘lgan operatorlar qo‘yiladilar.

Operator ortish-tushirish ishlarini bajarishga texnika xavfsizligining umumiyligi qoidalariga rioya qilishi, bir yilda kamida bir marta maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi, tibbiy ko‘rikdan o‘tishi shart.

Operator ortish-tushirish mashinasining texnik holatini doimiy ravishda nazorat qilib borishi shart.

Xavfli yukni ortish yoki tushirishda noxush hodisa yuz bergen taqdirda operator:

a) begona shaxslarni noxush hodisa joyiga qo‘ymasligi;

b) avariya brigadasini chaqirishi;

v) jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishi;

g) avariya kartochkasida sanab o‘tilgan talablarga muvofiq noxush hodisa oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko‘rishi;

d) avariya brigadasini ishiga yordam berishi shart.

Xavfli yuklar bilan ortish-tushirish ishlarini bajarishda operatorning chekishi taqiqlanadi.

119. Xavfli yuklarni qo‘lda ortish-tushirish bilan band bo‘lgan xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarga xavfli yuklarning ushbu turlari bilan munosabatda bo‘lish qoidalari bo‘yicha maxsus yo‘l-yo‘riq berilishi va ular ish davomida quyidagilarga amal qilishlari kerak:

a) tegishli xavfli yukka yozilgan ogohlantirish yozuvlarida ko‘rsatilgan talablarni qat’iy bajarish;

b) xavfli yuk yelkadan tushib ketishiga va sudralishiga yo‘l qo‘ymaslik;

v) ortish-tushirish ishlari bajarilayotgan joylarda chekmaslik;

g) ortish-tushirish ishlari tamom bo‘lgandan keyin belgilangan talablarga muvofiq ish kiyimini zararsizlantirish.

120. Avariya brigadasining xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari:

a) maxsus dastur bo‘yicha dastlabki tayyorgarlikdan o‘tishi;

b) noxush hodisalar oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha ishlardan har birini bajarish tugatilgandan keyin rejali tibbiy ko‘rikdan tashqari qo‘srimcha tibbiy ko‘rikdan o‘tish;

v) noxush hodisalar oqibatlarini tugatishga mo‘ljallangan mavjud vositalarni to‘liq texnik sozlikda saqlashi shart.

V. Tashishlarni texnik ta’minlash

Oldingi tahririga qarang.

121. Xavfli yuklar to‘liq komplektli va maxsus avtotransport vositalari uchun amaldagi normativ hujjatlarga (texnik topshiriqlar, texnik reglamentlarga yoki standartlarga) hamda avtotransport vositalarini qayta jihozlash (to‘liq jihozlash)ga texnik hujjatlarga muvofiq tayyorlanishi kerak bo‘lgan faqat maxsus yoki maxsus moslashtirilgan avtotransport vositalari bilan tashilishi kerak.

(121-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-martdagi 45-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 10-son, 105-modda)

122. Yengil alangalanadigan moddalarni tashish uchun muntazam foydalaniladigan avtotransport vositalari radiatorning oldida o‘ng tomonda qiya holda qo‘yilgan holda glushitel (shovqinni pasaytiradigan moslama)ning chiqarish quvuri bilan jihozlanishi kerak. Agar dvigatelning joyylanishi bunday qayta jihozlash imkonini bermasa, u holda tutun chiqaradigan quvurni o‘ng tomonga kuzov yoki sisterna va yonilg‘i kommunikatsiyasi zonasidan tashqariga chiqarishga yo‘l qo‘yiladi.

Tutun chiqarish quvuri iste’molchi tomonidan olib qo‘yiladigan alangani o‘chiruvchi qurilmasi o‘rnatish imkonini ta’minlashi kerak.

123. Yonilg‘i baki akkumulyator batareyasidan uzoqlikda yoki undan o‘tib bo‘lmaydigan to‘siq bilan ajratilgan bo‘lishi, shuningdek dvigatel, elektr simlari va tutun chiqaradigan quvurdan uzoqda bo‘lishi hamda bakdan yoqilg‘i oqqanda tashilayotgan xavfli yukka tushmasdan bevosita yerga quyiladigan tarzda joylashgan bo‘lishi kerak. Bak, bundan tashqari tubi va yonlaridan himoyaga (g‘ilof)ega bo‘lishi kerak. Yonilg‘i dvigatelga o‘z-o‘zidan berilmasligi kerak.

124. Avtotransport vositasidan 2, 3, 4 va 5-darajali xavfli yuklarni tashish uchun bir marta foydalanilgan taqdirda glushitelning chiqarish trubasi chiqish o‘yig‘iga alangani o‘chiruvchi to‘r o‘rnatilishiga yo‘l qo‘yiladi.

125. 2, 3, 4 va 5-darajali xavfli yuklarni tashiydigan vositalarning elektr uskunalari quyidagi talablarni qondirishi kerak:

a) elektr uskunasining nominal kuchlanishi 24 voltdan ortiq bo‘lmasligi kerak;

b) elektr simi korroziyaga uchramaydigan choksiz qobiq bilan himoyalangan simlardan iborat bo‘lishi hamda uning qizib ketishini to‘liq oldini oladigan tarzda hisoblab chiqilgan bo‘lishi kerak;

v) elektr tarmog‘i yumshoq predoxranitellar (zavodda tayyorlangan) yoki avtomatik viklyuchatellar yordamida oshirilgan yuklamadan saqlangan bo‘lishi kerak;

g) elektr o‘tkazma ishonchli izolatsiyaga ega bo‘lishi, mustahkam mahkamlanishi va avtotransport vositasining konstruktiv qismlariga urilish va yorilishlaridan zarar ko‘rmaydigan tarzda joylashtirilishi hamda sovitish tizimidan ajralib chiqqan issiqlikdan va ishlatilgan gazlardan himoyalangan bo‘lishi kerak;

d) agar akkumulyatorlar dvigatel kapoti ostiga joylashtirilmagan bo‘lsa, u holda ular izolatsiyalovchi ichki devorlar bilan ekvivalent mushakamlikda metalldan yoki boshqa materialdan ventilatsiya qilinadigan bo‘lmada bo‘lishi kerak;

e) avtotransport vositasi akkumulyatorni elektr zanjiridan ikki polosali viklyuchatel (yoki boshqa vosita) yordamida ajratish uchun moslangan bo‘lishi kerak, u imkoniboricha akkumulyatorga yaqin joyda bo‘lishi kerak. Viklyuchateli boshqarish — to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki masofadan turib boshqarish privodi ham haydovchining kabinasidan, ham avtotransport vositasining tashqarisida

bo‘lishi kerak. U oson topilishi va farq qiladigan belgi bilan belgilanishi kerak. Viklyuchatel ishlab turgan dvigatelda elektr zanjirining xavfli ortiqcha yuklamasini keltirib chiqarmasdan uning kontakti ishlayotgan dvigatelda ulanadigan tarzda bo‘lishi kerak.

j) rezbali tsokolga ega bo‘lgan lampalardan foydalanish taqiqlanadi.

Avtotransport kuzovlarining ichida tashqi elektr simlar tarmog‘i bo‘lmasligi kerak, kuzov ichidagi yoritish elektr lampalari mustahkam to‘suvchi to‘r yoki panjaraga ega bo‘lishi kerak.

126. Avtotransport vositalari uchqunga xavfsiz bo‘lgan materialdan 200 mm uzunlikdagi yerga tegib turadigan metall zanjir va to‘xtash joyida statistik va atmosfera elektr zaryadlaridan himoya qilish uchun metall shtir bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

Neft mahsulotlari tashiydigan avtotsisternalar kamida 2,5 mm kesimli va neft mahsulotlarini oqizish va quyishda yerga ulanish uchun kamida 20 mm uzunlikdagi egiluvchan ko‘p tomirli sim bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

127. “Furgon” tipidagi kuzovli avtotransport vositasida kuzov to‘liq yopiq bo‘lishi, mustahkam bo‘lishi, tirqishlari bo‘lmasligi hamda tashilayotgan xavfli yukning xossasiga qarab tegishli ventilatsiya tizimi bilan jihozlanishi kerak. Ichki qoplash uchun uchqun chiqarmaydigan materiallardan foydalaniladi, yog‘och materiallar o‘tga chidamli modda bilan qoplanishi kerak. Eshiklar yoki eshikka qulf solingen bo‘lishi kerak. Eshik yoki eshiklar konstruksiyasi kuzovning qattiqligini pasaytirmasligi kerak.

Ochiq kuzovlarni qoplash uchun brezentdan foydalanilgan hollarda, u o‘t olishi qiyin bo‘lgan va suv o‘tkazmaydigan matodan tayyorlanishi va bortni ular darajasidan 200 mm yopishi hamda zapor moslamali metall reykalar yoki zanjirlar bilan mahkamlanishi kerak.

128. Avtotransport vositasida orqa tomonda butun sisternada kenglikda zarbalardan yetarli darajada saqlaydigan bumper bo‘lishi kerak. Sisternaning orqa devori bilan bumperning orqa qismi o‘rtasidagi masofa kamida 100 mm ni tashkil etishi kerak (ushbu masofa sisterna devorining chet orqa nuqtasidan boshlab yoki tashilayotgan moddaga tegib turgan chiqib turuvchi armaturadan boshlab o‘lchanadi).

129. Quvurlar va rezervuarning yuqori qismiga o‘rnatilgan sisternalarning yordamchi uskunalar silkitilgan holda shikastlanishlardan himoyalangan bo‘lishi kerak. Bunday himoya konstruksiyasi shakli samarali himoyani ta’minalashi kerak bo‘lgan kuchayadigan halqalar, himoya qopqoqlari, uzuna yoki bo‘ylama elementlar shaklida tayyorlanishi kerak.

130. Avtotransport vositasi quyidagi soz instrumentlar va asbob-uskunalar bilan ta’minalishi kerak:

a) avtotransport vositasini avariya yuz berganda ta’mirlash uchun qo‘lda ishlatiladigan asboblar to‘plami;

b) yong‘inni o‘chirish uchun belkurak va qumning zarur zaxirasi;

v) har bir avtotransport vositasi uchun kamida bitta yurib ketishdan saqlaydigan tirkak, tirkakning o‘lchami avtotransport vositasi tipiga va uning g‘ildiragi diametriga muvofiq bo‘lishi kerak;

g) to‘q sariq rangli o‘chib yonadigan (yoki doimiy) avtonom ta’minaladigan ikkita fonar. Ular ularidan foydalanish xavfli yuklarning yonishini yuzaga keltirmaydigan tarzda konstruksiyalangan bo‘lishi kerak. Tunda to‘xtaganda yoki ko‘rish yaxshi bo‘limganda, agar avtotransport vositasining chiroqlari nosoz bo‘lsa, bitta fonar taxminan 10 m masofada avtotransport vositasi oldiga va boshqasi taxminan 10 m masofada avtotransport vositasining orqasida o‘rnatiladi;

d) dori qutisi va tashiladigan xavfli moddalarni neytrallashtirish vositalari.

Yuklarni xavfsiz tashish shartlarida va avariya kartochkasida nazarda tutilgan hollarda avtotransport vositasi tashilayotgan xavfli moddani neytrallashtirish hamda haydovchi va kuzatuvchi xodimning yakka tartibdagи himoya vositalari bilan butlanishi kerak.

131. XTAT jadvallarini avtotransport vositalariga mahkamlash ularning ishonchli fiksatsiyasini ta’minalaydigan maxsus qurilmalar yordamida bajarilishi kerak.

XTAT jadvallari avtotransport vositasining oldida (bumperda) va orqada, transport vositasining raqami belgilarini va tashqi chiroqlari priborlarini to‘smagan, shuningdek avtotransport

vositasining gabaritlaridan turtib chiqmagan holda uning bo‘ylama o‘qiga perpendikulyar joylashtirilishi kerak.

132. Xavfli yuklarni tashish uchun gaz generatorli avtotransport vositalarini qo‘llash taqiqlanadi.

133. Xavfli yuklarni tashiydigan avtotransport vositalariga bittadan ortiq tirkama yoki yarim tirkama tirkalmasligi kerak.

134. Har bir o‘rinning brutto massasi va birinchi o‘ram sig‘imi xavfli yuklarga normativ hujjatlarga belgilangan cheklangan massa va sig‘imdan ortiq bo‘lmasligi kerak.

135. Xavfli yuklarni o‘rab joylashtirish mahsulotga normativ hujjatlarga idish va o‘ramning aniq turlariga (tiplariga) muvofiq bo‘lishi hamda xavfli yuklarni ortishda, tushirishda, ularni transportda tashishda va saqlashda ularning saqlanishini ta’minlashi kerak.

136. Qistirma idish tayyorlangan material va qistirma materiallar tashilayotgan xavfli yukning spetsifik xossalari hisobga olingan holda tanlanadi hamda ushbu xavfli yukka nisbatan inert bo‘lishi yoxud inert qoplamaga ega bo‘lishi kerak.

137. Plastmassa idishning materiali ichidagi suyuqlikni o‘tkazmaydigan bo‘lishi, yumshamasligi va harorat yoki eskirishning ta’siri ostida mo‘rt bo‘lib qolmasligi kerak.

138. Gofrirlangan va boshqa karton yashiklar yetarlicha mustahkam va suvgga chidamli bo‘lishi kerak (namlanganda mexanik mustahkamlashni saqlashi kerak). Xavfli yuklarni foydalanilgan karton yashiklarda tashish taqiqlanadi.

139. Shisha butilkalar (idishlar) og‘zi mustahkam bekitilgan va mustahkam yashiklar, barabanlar, to‘rlarga joylashtirilishi yoki o‘ralishi, savatga joylashtirilishi kerak. Oraliq joylar inert qistirma singib oluvchi materiallar bilan to‘ldirilishi kerak. Butilkaning og‘zi to‘r yoki korzinaning chetidan chiqib turmasligi kerak.

140. Germetik yopilishi talab qilinadigan kavsharlanishi yoki metall idish prokladkali va stoporli buraladigan tiqin bilan jihozlanishi, namunaga olingan bosimning miqdorini va oxirgi sinov (sinab ko‘rish) sanasini ko‘rsatadigan yozuvlarga ega bo‘lishi kerak.

141. Suyuqliklar va bug‘ bosimi katta bo‘lgan gazlarni tashishga mo‘ljallangan ballonlar bosim ostida ishlaydigan idishlarni o‘rnatish va ulardan xavfsiz foydalanish qoidalariga javob berishi kerak.

142. Suyuqliklar tashishga mo‘ljallangan idishlar to‘liq to‘ldirilmasligi kerak, idishlarni tashiladigan suyuqliklar bilan to‘ldirish ularning to‘liq sig‘imining 90 foizini tashkil etishi kerak (suvali ammiak va suyultirilgan uglevodorod gazlar uchun — 85%).

143. Xavfli yukli idish (o‘ram) avtotransport vositasi kuzoviga ishonchli mahkamlanishi kerak. Xavfli yukni konteynyerlarda tashishda ayrim yuk o‘rinlari o‘lchami, konteyner ichida xavfli yuklarni joylashtirish va mahkamlash tartibi, shuningdek konteynyerlarga yuk ortish va tushirish bilan bog‘liq boshqa masalalar ushbu Qoidalarga muvofiq belgilanadi.

144. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan idishdan tashqari, ushbu Qoidalarda idishga qo‘yiladigan talablarga zid bo‘lmasligi sharti bilan qo‘srimcha tashqi idishdan foydalanish mumkin. Bunday qo‘srimcha idishdan foydalanilganda unga ko‘rsatilgan ogohlantirish yozuvlari va manipulatsiya belgilari yoziladi.

145. Bir nechta xavfli moddalar birgalikda o‘ralishiga yoki ularni turli xavfli moddalar mavjud bo‘lgan turli darajalarga tegishli boshqa yuklar bilan birga o‘rashga imkonli boricha yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

Avariya yuz bergen yoki idish singan taqdirda xavfli reaksiyalar oqibatlaridan (xavfli issiqlik ajralib chiqishi, yonish, ishqalanish yoki zarbaga sezuvchan bo‘lgan aralashmalar hosil bo‘lishi, alanganuvchi yoki zaharli gazlar ajralib chiqishi) qochish maqsadlarida birgalikda o‘rash zarur bo‘lgan taqdirda ichki idish yig‘ma idishda bir-biridan puxta va samarali tarzda ajratilgan bo‘lishi kerak.

Nozik idishni qo‘llashda va, ayniqsa, ushbu idishlarning ichida suyuqliklar bor bo‘lganda tegishli qistirma materialning yetarlicha soni qo‘llanilgan holda xavfli aralashmalar hosil bo‘lishidan, idishlarni ikkinchi mustahkam idishga joylashtirishdan, yig‘ma idishni bir nechta seksiyalarga bo‘lishdan qochish zarur.

146. Xavfli yuklarni tayyorlovchi tomonidan xavfli yukning har bir o‘ramiga ogohlantiruvchi yozuvlar va manipulatsiya belgilari bosilishi kerak (ushbu Qoidalarga 11-ilova^{*}).

* 11-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

147. Xavf belgilari:

a) parallelepiped shakliga ega bo‘lgan o‘ramlarga (shu jumladan konteynyerlar, konteyner-sisternalar va paketlarga) — yon, chet va yuqori yuzalarga;

b) bochkalarga — tubidan biriga va ikki qarama-qarshi tomonga;

v) qoplarga — ikki tomondan chocnung yuqori qismiga;

g) bog‘lam va tugunlarga — chekka va yon yuzalarga bosiladi.

Idishlarning boshqa turlariga xavf belgilari eng qulay va ko‘rinarli joylarga bosiladi.

148. Manipulatsiya belgilari xavf belgilaridan keyin bosiladi.

149. Agar xavfli yuk bittadan ortiq xavf turiga ega bo‘lsa, u holda o‘ramga ushbu xavflar turlarini ko‘rsatuvchi xavflilikning barcha belgilari bosiladi. Daraja raqami xavfning asosiy turi belgisiga bosiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

150. Ko‘tarish-avtotransport uskunasi to‘liq texnik soz holatda bo‘lishi va yong‘in xavfsizligi talablariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi qoidalariga javob berishi, kranlar, chig‘ir va boshqa yuk ko‘tarish mexanizmlarining yuk ko‘tarishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi, shuningdek xavfli yuklar qulashdan ishonchli to‘silgan bo‘lishi kerak.

(150-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-martdagi 195-soni qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma ’lumotlari milliy bazasi, 07.03.2019-y., 09/19/195/2712-ton)

151. Xavfli yukni ko‘taradigan chig‘ir va yuk ko‘tarish mashinalari strelasi qulochini o‘zgartirish qurilmasi, qoidaga ko‘ra, ikkita forma bilan jihozlanishi kerak. Bitta tormoz mavjud bo‘lgan taqdirda yuklama uning nominal yuk ko‘tarishining 75 foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

152. Xavfli yuklar bilan ishlashda band bo‘lgan yuk ko‘tarish mashinalarida qo‘llaniladigan elektr dvigatellari portlash xavfisiz tayyorlanishi kerak.

153. Dalolatnomalar tuzish, e’tiroz va da’volar qo‘zg‘ash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

VI. Xavfli yuklarning ayrim klasslarini tashishni tashkil etish va texnik ta’minlash xususiyatlari

154. Siqilgan va suyultirilgan gaz solingen ballonlarni tashishga ballonlar va ularning armaturalari, zاغlushkalari to‘liq soz bo‘lganda hamda ballonlarda:

a) siqilgan va suyultirilgan gaz solingen ballonlar bo‘yalgan va ularga yozuvlar yozilganda (ushbu Qoidalarga 12-ilova^{*});

* 12-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

b) predoxranitel qopqog‘i;

v) xavf belgilari;

g) balloonning raqami;

d) bo‘sh ballon massasi;

e) texnik ko‘rikdan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi belgi (tamg‘a) va uning keyingi muddati;

j) ishchi va namuna olinadigan bosim mavjud bo‘lganda yo‘l qo‘yiladi.

155. Ballonlarni gaz bilan to‘ldirish belgilangan normalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Bu haqda tovar-transport yuk xatiga quyidagi belgi qo‘yiladi: “Ballonlar belgilangan normadan ortiqcha to‘ldirilmagan”, shuningdek “Ballonlar germetiklikka, gaz chiqmayotganligiga tekshirilgan” degan yozuv qayd etiladi.

Agar:

a) tayinlangan ko‘rikdan o‘tkazish muddati tamom bo‘lgan bo‘lsa;

b) armatura va nazorat-o‘lchash asboblari yo‘q bo‘lsa yoki nosoz bo‘lsa;

v) zarur tarzdagi bo‘yoq yoki yozuvlar bo‘lmasa;

g) g‘ovak massani tekshirish muddati tamom bo‘lgan bo‘lsa;

d) ballon korpusi shikastlangan bo‘lsa;

- e) ventil nosoz bo‘lsa;
 - j) zarur tarzdagi bo‘yoq yoki yozuvlar bo‘lmasa;
 - z) ortiqcha gaz bosimi bo‘lmasa;
- i) belgilangan tamg‘a mayjud bo‘lmasa sisterna va bochkalarni gaz bilan to‘ldirish taqiqlanadi.

156. Bortli avtomobillarda siqilgan va suyultirilgan gaz solingen ballonlar:

- a) ballonlar diametri o‘lchami bo‘yicha qirqilgan uyali, kuzov ichidagi ventillar bilan maxsus yog‘och tagliklarda gorizontal holatda;

b) zarbalardan himoya qilish uchun kamida 55 mm diametrli rezina yoki arqondan tayyorlangan ballonlarga o‘rnatalgan halqalar bilan vertikal holatda tashiladi. Avtomobilarga yuk ortish chegarasi yo‘llarning qoidasiga qarab belgilanadi.

157. Yoz vaqtida gaz to‘ldirilgan ballonlarni tashishda ballonlar quyosh nurlaridan isishdan himoya qilish maqsadida brezent bilan to‘silishi, bundan tashqari bortli avtomobillarda ikkita karbonat kislotali yoki kukunli o‘t o‘chirgich o‘rnatalgan bo‘lishi kerak, so‘l bortning old burchagiga qizil bayroqcha o‘rnatalidi.

158. Bosim ostidagi siqilgan va suyultirilgan gazlarni tashish uchun qo‘llaniladigan avtotransport vositalari (sisternalar va bochkalar) qo‘srimcha ravishda quyidagi yozuvlarga ega bo‘lishi kerak:

- a) tayyorlovchi zavodning nomi;
- b) sisternaning zavod raqami;
- v) tayyorlangan yili va ko‘rikdan o‘tkazilgan sana;
- g) bo‘sh holatda yuriladigan qism bilan birga sisterna massasi (umumiyligida og‘irlilik tonnalarda);
- d) m³da sig‘im;
- e) ishchi va namunaviy bosim miqdori kg/sm²da, tayyorlovchi zavod TNB tamg‘asi;

Oldingi tahrirga qarang.

j) sisternaning ro‘yxatdan o‘tkazish raqami (sisterna yoki bochka O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin ularning egasi tomonidan bo‘yoqda yoziladi).

(158-bandning “j” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-martdagisi 195-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.03.2019-y., 09/19/195/2712-son)

159. Avtotransport vositalarida — sisternalar, bochkalarda quyidagi asbob-uskunalar o‘rnatalgan bo‘lishi kerak:

- a) tashiladigan gazlarni to‘ldirish va chiqarish (quyish) uchun ventil;
- b) tashiladigan gazlarning bug‘ini tanlash uchun ventil;
- v) ikkita predoxranitel klapani;
- g) monometr;
- d) suyuqlik darajasini nazorat qilish qurilmasi;
- e) avtotsisternani gazning avariyalari sarflaridan o‘z-o‘zidan himoya qiluvchi qurilma.

Suyultirilgan gaz uchun sisterna va bochkaning har bir to‘ldirish va quyish ventili mahkam buraladigan zaglushka bilan ta’milangan bo‘lishi kerak.

160. Gazni avariyalari chiqarib yuborishda (zaruriyat bo‘lgan taqdirda) quyidagi talablarga amal qilish zarur:

a) gazni chiqarib yuborish rayonida begona shaxslarning 100 metrdan yaqin masofada turishi taqiqlanadi. Eng yaqin imoratgacha yoki aholi punktlarigacha bo‘lgan masofa kamida 1000 metr bo‘lishi kerak;

b) gaz chiqarib yuborilayotganda avtotransport vositasining dvigateli o‘chirib qo‘yilgan bo‘lishi, avtotransport vositasi va gazni chiqarib yuborish kommunikatsiyalari ishonchli yerga ulangan bo‘lishi kerak;

v) sisternadagi bosim minutiga 0,1 kg/sm²dan ortiq bo‘lmagan tezlikda pasayishi kerak;

g) gazni chiqarib yuborish shamolning esishi bo‘yicha avtotransport vositasi, aholi punktlari va imoratlardan boshqa tomonga qarab amalga oshirilishi kerak.

161. Bug‘ bosimi +50 °S haroratda 300 KPa (3 bara)dan ortiqni, alanga olish harorati 100 °Sdan ortiq bo‘lmagan suyuqliklar yengil alangalanadigan suyuqliklar deb hisoblanadi.

162. Oksidlanadigan suyuqliklardan (efirlar va ba‘zi geterotsiklik kislород moddalari) bo‘lgan yengil alangalanadigan suyuqliklar, agar ularning tarkibidagi perekrid miqdori 0,3 foizdan oshmagan taqdirda tashishga qo‘yiladi.

163. Tarkibida yonuvchi moddalar bo‘lgan dorixona, moskal, attorlik tovarlari va boshqa aralashmalar, agar ushbu aralashmalarning alangalanish harorati 100°Sdan past bo‘lsa xavfli yuklarga tegishli bo‘ladi.

164. Gazning suvi bilan to‘qnashganda ajralib chiqadigan yengil alangalanadigan moddalar yopiq kuzovli avtotransport vositasida germetik idishda tashilishi kerak.

Yengil alangalanadigan moddalarni tashish uchun tovar-transport yuk xatiga “Suvdan alangalanadi” degan belgi qo‘yilishi shart.

165. Yengil alangalanadigan modda turiga qarab:

a) natriy metall va boshqa ishqorlanadigan metallar — kam yopishqoq mineral moy yoki kerosin bilan to‘ldirilgan 10 kilogrammgacha og‘irlikdagi bankalarga va 100 kilogrammgacha og‘irlikdagi temir bochkalarga germetik joylashtiriladi;

b) oq va sariq fosfor suvda metall bilan kavsharlangan bankalarda tashiladi, bankalar yog‘och yashiklarga joylashtiriladi;

v) qizil fosfor germetik holda metall bankalarga joylashtiriladi. Bankalarning og‘irligi 16 kilogrammdan ortiq emas. Bankalarning germetikligiga taglik materiallarni qo‘llash orqali erishiladi;

g) bankalar tashish uchun yog‘och yashiklarga yoki faner barabanlarga joylashtiriladi. Bir yuk joyining umumiy og‘irligi 95 kilogrammdan ortiq bo‘lmasligiga yo‘l qo‘yiladi;

d) kinolentalar, rentgen plyonkalari va boshqa shunga o‘xhash xavfli yuklar metall yashiklarga joylashtirilgan metall qutilarda tashiladi, o‘ramning umumiy og‘irligi 50 kilogrammgacha;

e) kalsiy karbid va boshqa shunga o‘xhash xavfli yuklar temir barabanlarga joylashtiriladi. O‘ramning og‘irligi 100 kilogrammdan ortiq bo‘lmasligi kerak;

j) tarkibidagi suv bilan kamida 10 foiz namlikdagi nitrat ammoniy, nikrin kislota, azot oksidli karbamid, trinitrobenzol, trinitrobenzoy kislota yoki trinitrotoluol yoki tarkibida kamida 20 foiz suv bo‘lgan namlikdagi tsikoriy pikromat shisha idishda tashiladi. Bir upakovkadagi xavfli yuk og‘irligi 1 kilogrammdan ortiq bo‘lmasligi kerak. Shisha idishlar tashish uchun yog‘och yashiklarga joylashtiriladi;

z) oltingugurt va naftalin eritilan holatda avtomobil-sisternalarda tashilishi mumkin.

166. Eritilgan oltingugurt yoki naftalinni tashish uchun qo‘llaniladigan sisternalar kamida 6 mm qalinlikdagi listlangan po‘latdan tayyorlangan yoki xuddi shunday mexanik mustahkamlikka ega bo‘lgan alyuminii qotishmasidan tayyorlanishi kerak va:

a) sisterna ichida devorlarda kamida 70°S haroratni qo‘llab-quvvatlash uchun termoizolatsiyaga;

b) 0,2 dan 0,3 kg/sm²gacha bosim ostida ichkariga yoki tashqariga ochiladigan klapanga ega bo‘lishi kerak. Eritilgan oltingugurt yoki naftalinni tashish uchun foydalaniladigan sisternadagi klapanlar, agar sisterna 2 kg/sm ishchi bosimga mo‘ljallangan bo‘lsa, bo‘lmasligi mumkin.

167. Oksidlanadigan moddalar va organik peroksidlar standart zavod o‘ramida tashilishi mumkin.

168. Oksidlanadigan moddalar va organik peroksidlarni ortish-tushirish va tashishda o‘z-o‘zidan alangalanishdan, yong‘in yoki portlashdan saqlanish uchun yog‘och qipiqlar, poxol, ko‘mir, torf, mayda zarrali chang va boshqa organik moddalar bilan ifloslanishi yoki aralashishidan qochish zarur.

169. Yengil eriydigan peroksidlarni ortish, tushirish va tashishda quyidagi harorat rejimi saqlanishi kerak:

dioktanoil va dikaprililning texnik toza peroksidlari +10 °Sdan yuqori emas;

atsetil-siklogeksansulfonil peroksi —10 °S;

diizopropil korbont peroksidlari+20 °S;

tretbutil perpivalti —10 °S;
flegmatizator bilan +2 °S;
erituvchi bilan —5 °S;
3,5; 5 peroksidi — sekinlashtiruvchi bilan eritmadi trimetilgensanoil (20%) — 0 °S;
bis-dekanoynning texnik toza peroksidi +20 °S;
dipyerlaronilning texnik toza peroksidi — 0 °S;
etilgensanoat butilning texnik toza 2-peroksidi +20 °S;
sekinlashtiruvchi yoki erituvchi bilan gensilning karbonat bis-etil 2 peroksidi (55%) —10 °S;

eritma bilan uchlamchi butil perizonitrati (25%) — +10 °S.

170. Organik peroksidlarni tashish uchun foydalaniladigan izometrik kuzovli avtomobillar-furgonlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- a) atrof muhit haroratidan qat'i nazar, harorat rejimini ta'minlashi;
- b) haydovchining kabinasiga tashilayotgan peroksidlarning bug'lari kirishidan saqlashi;
- v) tashilayotgan xavfli yuklarning harorati holati ustidan haydovchining kabinasidan turib nazorat qilishni ta'minlashi;
- g) orqa harorat rejimini buzmaydigan tegishli ventilatsiyaga ega bo'lishi;
- d) qo'llaniladigan sovutuvchi moddalar alangalanmaydigan bo'lishi kerak.

Sovutish uchun suyuq kislorod yoki havodan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Organik peroksidlarni tashish uchun avtotransport vositalaridan tirkamalar-refrigeratorlardan foydalanishda ularning sovutish qurilmasi avtotransport vositasi dvigatelei ishlashidan qat'i nazar, ishlashi kerak.

171. Yengil parchalanadigan peroksidlarni qisqa masofaga tashishda tashishga va ortish-tushirish operatsiyalarini bajarishga sarflanadigan butun vaqt mobaynida zarur harorat rejimini ta'minlaydigan sovutish reagentlari bilan maxsus saqlovchi o'rmlar qo'llanilishiga ruxsat beriladi.

172. Oksidlanadigan moddalar va organik peroksidlarni yuklashdan oldin avtotransport vositalarining kuzovi changdan va ularda oldin tashilgan yuklarning qoldiqlaridan puxta tozalanishi kerak.

173. Zaharli moddalarini tashishga faqat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Portlovchi va zaharli moddalarini yaratish, ishlab chiqarish, tashish, realizatsiya qilish sohasida xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2004-yil 5-martdag'i 109-son [qarori](#) talablariga muvofiq litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga ruxsat beriladi.

Zaharli moddalar avtotransport vositalarida tashishga zavod o'ramida qabul qilinadi.

174. Alovida xavfli zaharli va infitsirlangan moddalarini tashish o'q otar quroq bilan qurollangan soqchilar hamrohligida amalga oshiriladi.

175. Yoz vaqtida (aprel—oktyabr) tsianid kislotani tashish yuk o'rinalarini quyosh nurlari ta'siridan himoya qilish choralariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Yuk o'rinalari brezent bilan yopilganda u tashilayotgan yukning ustida kamida 20 sm balandlikda bo'lishi kerak.

176. Infitsirlangan moddalar tashqi muhitdan ajratilishini ta'minlaydigan maxsus jihozlangan avtotransport vositasida tashiladi. Tashishdan keyin avtotransport vositalari dezinfeksiya qilinadi.

177. Zaharli moddalar bilan ortish-tushirish ishlari ortish (tushirish) punktiga begona shaxslarning kirishini istisno qiladigan ishonchli qo'riqlash bilan ta'minlangan holda amalga oshiriladi.

178. Radioaktiv moddalarini tashish ushbu Qoidalar, 0193-06-son SanQ vaN hamda MAGATE-ST-1 qoidalari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

179. Radioaktiv moddalar turlari MAGATE-ST-1 qoidalari bilan belgilanadi.

180. Tarkibida sulfat kislota mavjud bo'lgan qo'rg'oshin toshqalini tashishda avtotransport vositasining kuzovi ichkaridan parafin va qatron surilgan karton qoplanishi kerak, ko'rsatib o'tilgan xavfli yukni brezent ostida tashishda brezentning yuk bilan bevosita tutashishiga yo'l qo'yilmaydi.

181. O'yuvchi va korroziyalı moddalarini tashish uchun mo'ljallangan avtotransport vositasi yonuvchi qoldiqlardan (poxol, pichan, qog'oz va hokazolardan) tozalanishi kerak. Korroziyani keltirib chiqaradigan siqilgan gazlarni tashish uchun mo'ljallangan sisternalar va bochkalarda

tamg‘alash joyi pasport ma'lumotlari tushirilgandan keyin korroziyaga qarshi rangsiz lok bilan qoplanishi kerak.

182. Kislotalar bilan ortish-tushirish ishlarini amalga oshirishda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni himoya qilishning quyidagi vositalari qo'llaniladi:

- a) kislotaga qarshi fartuk;
- b) movut kostyum;
- v) rezina qo'lqoplar;
- g) ko'zoynaklar yoki niqoblar.

Ip gazlamadan tikilgan kiyimga kislotaga chidamli modda shimdirlimasdan kislotalar bilan ishslash taqiqlanadi.

183. Ishqorlar bilan ortish va tushirish ishlarini bajarishda kislota bilan ishlashdagi kabi himoya vositalaridan va kislotaga chidamli modda shimdirligan kostyumdan foydalaniladi.

184. Transportda tashishda nisbatan past xavfli moddalarga quyidagilar tegishlidir:

- a) yonuvchi moddalar va materiallar (efirlar, neft mahsulotlari, kolloid oltingugurt, ammoniy dinitroortokrezolat, kunjara, baliq uni, qatron, yog‘och qirindisi);
- b) muayyan sharoitlarda o‘yuvchi va korroziyalovchi moddalar (oksidlovchilar, so‘ndirilmagan ohak, natriy sulfitlar va kaliy, ammoniy tuzi);
- v) kuchsiz zaharli moddalar (pestitsidlar, shotsiantlar, bo‘yoqlar, texnik moylar, mis birikmasi, ammoniy karbomid, zaharli urug‘lar va mevalar, anod massa);
- g) aerozollar.

185. Ushbu Qoidalarning **184-bandida** sanab o‘tilgan moddalar ushbu Qoidalarning umumiy talablariga muvofiq tashiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

*(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrdagi 370-soni
qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — O‘R QHT, 2016-y., 3-son, 23-modda)*

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 7-8-son, 59-modda; 2014-y., 10-son, 105-modda; 2016-y., 3-son, 23-modda, 9-son, 90-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son, 05.07.2018-y., 09/18/503/1458-son; 07.03.2019-y., 09/19/195/2712-son,
11.08.2019-y., 09/19/661/3571-son)*